

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

2023-yil 7-mart, seshanba,
27-28 (23.748-23.749)-son

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

**KUN HIKMATI**

Ayolni qadrlash erkaklarga izzat-ikrom bo‘lib qaytadi



*Har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati va g‘amxo‘rligi bilan belgilanadi.*

**Shavkat MIRZIYOYEV.**



*Samarqand viloyati hokimining QARORI*

## Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi oltinchi chaqiriq sakson ikkinchi sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

*“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan* **QAROR QILAMAN:**

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi oltinchi chaqiriq sakson ikkinchi sessiyasi **2023-yil 10-mart kuni soat 10:00 da** chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining taqdimnomasi yuzasidan viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari kotibiyati mudiri K.Xushbakovning hisoboti haqida;
- viloyat hokimi o‘rinbosari - investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i O.Mirzabekovning viloyatda 2022-yilda investitsiyalar jalb qilish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha hisoboti to‘g‘risida;
- viloyat mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida;
- Samarqand shahrining aglomeratsiyasi bo‘yicha ishlab chiqilgan transport va infratuzilmasini rivojlantirish Bosh rejasi va uni amalga oshirish bo‘yicha manzilli dasturni tasdiqlash to‘g‘risida;
- deputatlik vakolatini muddatidan oldin tugatish to‘g‘risida;
- boshqa masalalar.

**Viloyat hokimi** **E.TURDIMOV**

*2023-yil 3-mart*

## MUKOFOTLAR MUBORAK!

**Prezidentimizning 2023-yil 6-martdagi “Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, viloyatimizdan quyidagilar mukofotlandi:**

**Ergashova Baxora Sayfillo qizi** -

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining italyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri.

**Xudoyorova Farangiz** -

Samarqand shahridagi “Alisher Navoiy” mahalla fuqarolar yig‘ini yoshlar yetakchisi.





**Prezidentimizning 2023-yil 6-martda imzolangan farmoniga ko‘ra, Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan bir guruh opa-singillarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi.**

**Ular orasida viloyatimizdan quyidagilar bor:**

**“MEHNAT SHUHRATI” ordeni bilan**

**Narmuradova Maxbuba Akramovna** - Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasining farroshlar brigadasi boshlig‘i.

**“DO‘STLIK” ordeni bilan**

**Kayumova Maxfuza Abdinabiyevna** - Paxtachi tumanidagi “Paxtachi agro hamkor tomorqa xizmati” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari.

**II darajali “SALOMATLIK” ordeni bilan**

**Yuldasheva Rayxon Sayfidinovna** - Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Samarqand filiali ko‘z jarrohi.

**“SODIQ XIZMATLARI UCHUN” medali bilan**

**Axatova Zamira Rustamovna** - Kattaqo‘rg‘on shahar ichki ishlar bo‘limining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmasi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori.

**“SHUHRAT” medali bilan**

**Azimova Gulmira Djaxanovna** - Samarqand viloyati transport boshqarmasining tramvay liniyalarini ekspluatatsiya qilish direksiyasi tramvay haydovchisi.









## HAR BIR AYOLNING O‘Z SO‘ZI, UMIDI VA ISHONCHI BOR

**Biz uzoq yillar davomida bugun jamiyatga qanday ayol kerak, qanday qiyofada bo‘lishi zarur, degan qarashlar bilan unga turli ijobiy ko‘rinishlar tanlab, shunga moslashga intildik. Ayolning ko‘nglida nima gaplar bor, u o‘zi qay ahvolda yashayapti, nelar bilan mashg‘ulligiga e’tibor qaratmadik.**



Keyingi yillarda ayollar bilan ishlash, uning hayotini yaxshilash maqsadida olib borilayotgan ishlar bir yoqlama emas, eng kichik detallarigacha o‘ylab, amalga oshirilish mexanizmlari ham tashkillashtirilgan tarzda hayotga tatbiq etilmoqda.

Yaxshi bilasiz, xotin-qizlar bilan ishlaydigan tizim uzoq yillar davomida asosan oiladagi nizolarning oldini olish bilan shug‘ullanishga kuchi yetadigan tashkilot sifatida ishladi. Yildan-yilga takomillashtirishga urinish bo‘lsa-da, aniq yordam berish mexanizmi bo‘lmadi. Murojaatlar ham asosan shu kabi masalalar bilan bog‘liq bo‘ldi.

Bugun esa oila, xotin-qizlar bilan ishlash tizimi eng quyidan boshlandi. Mahallaga emas, oilalarga kirib borildi. Viloyatda yashayotgan xotin-qizlar, oilalar to‘liq xatlovdan o‘tkazildi, ularning qanday faoliyat bilan shug‘ullanayotgani, oiladagi yutuq va muammolari o‘rganildi. Shu asosida ularga manzilli yordam ko‘rsatish mexanizmi shakllantirildi. Maqsad bitta - xotin-qizlarning yashash sharoitini yaxshilash, ularga yordam ko‘rsatish orqali ro‘zg‘orini tiklab olishiga ko‘maklashish berish, o‘ziga ishonchini orttirish, farzandlariga suyanchiq bo‘lishiga turtki berishdir. “Ayollar daftari”ning o‘zida juda ko‘p muammolar hal etilmoqda. Uy-joy masalasidan tortib, sog‘lig‘ini tiklash uchun yordam, ish topishi, tadbirkorlikni boshlashi kabi yo‘nalishlar qamrab olindi.

“Ayollar daftari”ning birinchi va ikkinchi bosqichi doirasida viloyatimizda 81 mingdan ortiq xotin-qizga amaliy yordam ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2022-yilda uchinchi bosqichida ijtimoiy sharoiti og‘ir, yordamga muhtoj 65 ming 854 nafar opa-singlimizga amaliy yordam berildi.

28570 nafar ishsiz ayolning bandligi ta’minlandi. Kredit olish istagida bo‘lgan 2680 nafar xotin-qizga 32,8 milliard so‘m kredit ajratildi.

Avvaliga elektr pechlari, tikuv mashinalari ajratilgan ayollar uni sotib yuborishi yoki foydalana olmagani kuzatildi. Keyin xotin-qizlarni tadbirkorlarga biriktirgan holda ish o‘rgatib, zarur jihoz olib berish orqali faoliyatini davom ettirishiga sharoit yaratildi. Natijada bir paytlar ro‘zg‘orini zo‘rg‘a yuritgan, “Ayollar daftari”da ro‘yxatda turgan xotin-qizlar bugun o‘zi ish beruvchi sifatida faoliyat ko‘rsatib, kam ta’minlangan oila a’zolarini ishga qabul qilmoqda.

To‘g‘ri, yashirmaymiz, bu kabi ishlarning amalga oshirilishi ba’zi xotin-qizlarda "davlat yordam berishi kerak", degan tushunchaning paydo bo‘lishiga ham olib kelyapti. Lekin vaqt o‘tishi bilan, yordam berish shunchaki mablag‘ ajratish emas, ayolning qo‘lidan keladigan ishga, uquviga qarab daromad topishiga imkoniyat yaratish ekani oydinlashib bormoqda. O‘z hunari, mehnati bilan ro‘zg‘orini obod qilib, oilasini charog‘on etayotganlar soni ko‘paymoqda. Xonadonma-xonadon yurish, ayollarning ko‘ngliga quloq tutish, bugun shunday natijalarni berayotir. Ishli, hunarli ayolning o‘ziga ishonchi bo‘ladi, bunday ayol farzandi tarbiyasida ham adashmaydi, sog‘lig‘iga e’tiborli bo‘ladi va jamiyatga kerakli ekanligini his qilib yashaydi.

Yurtimizda kechayotgan islohotlarning tub mohiyatida ham shu maqsad mujassam.

**Zebiniso RAHMONOVA,**
**viloyat hokimi o‘rinbosari,**
**viloyat oila va**
**xotin-qizlar boshqarmasi**
**boshlig‘i.**

## FAROVONLIK YO‘LLARI BELGILANDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, bu yilgi davlat dasturi tasdiqlandi.**

Davlat dasturining har bir bandi mamlakatimiz rivoji uchun ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Aynan shuning uchun dastur loyihasi keng jamoatchilik tomonidan qizg‘in muhokama etildi. Xalqimiz tomonidan bildirilgan takliflar, fikr-mulohazalar inobatga olingan holda 7 yo‘nalish, 100 maqsad, 293 banddan iborat Davlat dasturi qabul qilindi.

Albatta, dasturda belgilangan har bir band bo‘yicha alohida to‘xtalib o‘tish mumkin. Muhimi, ularning har biri bosib o‘tgan yo‘limizdan kelib chiqadigan xulosa va hayotimizni farovon qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Misol uchun, dasturda iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish borasida vazifalar belgilangan.

Bundan tashqari, aholi xonadonlarida quyosh panellari va geliokollektorlar o‘rnatilishiga ajratiladigan subsidiyalar hajmini 2 baravarga ko‘paytirish ta’kidlanganki, bu ham el-yurt ma’murchiligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman, dastur bilan tanishgan kishi davlatimiz rahbarining o‘tgan yil yakunida Parlament va xalqimizga qilgan murojaatida qayd qilgan qo‘lda boshqarish tizimidan samarali elektron boshqaruvga o‘tish zaruratining hayotiy ifodasini ko‘rish mumkin.

Davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlashda keng jamoatchilik nazoratini samarali yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Zero, bugungi voqelik va davr ayni shuni taqozo qilmoqda.

## “XAVFSIZ HAYOT UCHUN”

### VELO VA YURISH MARAFONI G‘OLIBLARI ANIQLANDI

**5-mart kuni respublika miqyosida huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash hamda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan dasturlar doirasida “Xavfsiz hayot uchun” shiori ostida velo va piyoda yurish marafoni o‘tkazildi.**

Samarqand shahridagi “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turizm markazida tashkil etilgan marafonda IIB xodimlari bilan birga barcha huquqni muhofaza qilish organlari, harbiylar, sportchi va ko‘ngilli yoshlardan iborat 4 mingdan ziyod sportsevarlar ishtirok etdi.

Qatnashchilar velosipedda va piyoda 5 kilometr masofani bosib o‘tdi.

Velomarafonda g‘oliblik Toyloq olimpiya zaxiralari kolleji sportchilari Murod Omonqulov va Jasmina Boliyevaga nasib etgan bo‘lsa, yurish marafonida TATU Samarqand filiali talabasi Asror Abdumo‘minov va Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali talabasi Sevara Po‘latova g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, musobaqa davomida erkaklar va ayollar o‘rtasida “Eng keksa faol marafon ishtirokchisi” va “Eng yosh faol marafon ishtirokchisi” nominatsiyasi g‘oliblari ham aniqlandi.

**F.RO‘ZIBOYEV.**

## OB-HAVO



Bugun havo o‘zgaruvchan bo‘lib, **yog‘ingarchilik bo‘lmaydi. Shamol tezligi 15-25 metr soniyagacha** kuchayishi, **chang-to‘zon ko‘tarilishi mumkin.** Harorat **kechasi 10-12 daraja, kunduzi 23-28 darajaga iliq** bo‘ladi.

**8 hamda 10-mart kunlari** ayrim joylarda **yomg‘ir yog‘adi. 9-martda yog‘ingarchilik kutilmaydi.** Ushbu kunalarda **shamol tezligi 15-20 metr soniyagacha** kuchayadi. Harorat **kechasi 5-12 daraja, kunduzi 15-26 daraja iliqqacha** ko‘tariladi.

**OGOHLANTIRAMIZ: 8-10-mart kunlari** kutilayotgan yomg‘ir sabab, **Urgut, Samarqand, Bulung‘ur, Nurobod, Qo‘shrabot, Payariq, Jomboy** hamda **Ishtixon** tumanlarining tog‘oldi va tog‘li hududlarida **sel, suv-toshqin hodisalari** yuzaga kelishi mumkin.

Ushbu hududlarda istiqomat qiluvchi fuqarolar, dam oluvchilar hamda haydovchilarning ehtiyot choralarini ko‘rishlarini so‘raymiz.

**Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasi.**

## 11-MART KUNI UMUMXALQ XAYRIYA HASHARI O‘TKAZILADI

***Vazirlar Mahkamasining bu haqdagi farmoyishida qayd etilishicha, Navro‘z bayramini munosib nishonlash hamda muborak Ramazon oyini qarshi olishga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida tashkil etilayotgan umumxalq xayriya hashari “OBOD VA FAYZLI MAHALLA – YURT KO‘RKI” shiori ostida o‘tkaziladi.***

***Xayriya hashari doirasida “MAHALLAMGA 10 TUP DARAXT - MENING TUHFAM” shiori ostida daraxt ko‘chatlari ekish, hududlarni ko‘kalamzorlashtirish, ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalardan xabar olish va muruvvat tadbirlarini o‘tkazish ko‘zda tutilgan.***

**Mamlakatimiz mehnat bozori mintaqadagi eng jadal rivojlanayotgan bozorlardan biridir. Tez o‘sib borayotgan ishchi kuchi bandligini ta’minlashda xususiy sektor muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ijtimoiy himoyani ta’minlash, ijtimoiy muloqotni mustahkamlash, gender tenglik eng ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi.**

# Bekalarni qanday baxtli qilyapmiz?



Bu borada aholini ish bilan ta’minlash, ayniqsa, opa-singillarimizning daromadli, ayni damda baxtli turmush sharoitlariga ega bo‘lishlari uchun nima qildik?

Birinchi navbatda "Xonadonbay" tizimi asosida 2900 nafar aholi yashayotgan 650 ta xonadonning sharoiti o‘rganilib, toifalarga ajratildi. Albatta, aholining kam ta’minlangan qatlamini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash zarur. Ammo kambag‘allikning sabablarini hisobga olgan holda, odamlar o‘zlarining moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan va daromad topishi uchun sharoit yaratish birinchi navbatdagi vazifa.

Mutaxassisligim psixolog bo‘lganligi uchun odamlar bilan suhbatlashganda uy sharoiti, daromad manbai va imkoniyatlari bilan birga xonadonidagi ranglar va uyining saranjomligiga e’tibor berib, xonadon a’zolarining kayfiyati bilan qiziqaman. Chunki insonning ongi va tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgartirmay turib, maqsadga erishib bo‘lmaydi. Baxt va boylik bu - sog‘ligi, farzandlari, bugun yashayotganligi va unga berilayotgan e’tiborda, deb tushuntiramiz.

Ta’kidlash lozim, ishsizlarga asbob-uskuna tarqatishdan oldin ulardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish o‘z samarasini bermoqda. Bu borada mahallamizda kasb-hunar maktabi bilan bitim tuzilib, 30 ga yaqin xotin-qiz uchun maktab filiali tashkil etildi.

Lider tadbirkor F.Zayniyevning turmush o‘rtog‘i Gulbahor Zayniyeva bilan barcha qulayliklarga ega yangi polietilen qoplar tikish sexi va oshxona tashkil etildi. Natijada o‘nlab “Ayollar daftari”da ro‘yxatga olinganlarni doimiy ish bilan ta’minladik.

Bundan tashqari, 16 nafar fuqaroga 2 gektar yer ijaraga berildi va ular sabzavot ekinlari yetishtirishni yo‘lga qo‘ydi. “Bir mahalla-bir mahsulot” loyihasi doirasida sabzavot ekinlariga xaridor ham naqd.

Mahallada chorvachilik bilan shug‘ullanuvchilar ko‘pligi uchun 47 nafar oila bekalarini sut va sut mahsulotlari tayyorlash bilan bandligini ta’minladik. Ushbu mahsulotlar sotuvini tashkil etish uchun “E-auksion” orqali yengil konstruksiyali do‘konga joy ajratildi.Ayni damda bu yerda 1 nafar nogironligi bo‘lgan fuqaro savdo qilyapti.

Eng muhimi, ko‘p yillar ishlatilmay turgan, tadbirkorga tegishli ko‘p qavatli uy-joyga mo‘ljallangan bino kapital ta’mirdan chiqarilib, shahar hokimligi tomonidan ajratilgan mablag‘ hisobidan uy-joyga muhtoj 16 nafar fuqaroga berildi.

**Feruza RAHIMOVA,**
**Kattaqo‘rg‘on shahar Yermachit mahallasidagi hokim yordamchisi.**

# SARISHTALI BO‘LISH UCHUN...

**Bu uyga to‘satdan, ogohlantirmasdan bordik. Uyga kirarkanman, avvaliga hayron qoldim, biz adashmadikmi, deya sherigimga qarab qo‘ydim. Gap shundaki, Kimyogarlar qo‘rg‘onidagi Nurli kelajak mahallasida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan 114 oilaga uy berilgan. Ular bilan suhbatlashish, qanday sharoitda istiqomat qilayotganini bilish maqsadida ushbu mahallaga borgandim. Mahallaning xotin-qizlar faoli Mohida Karimova "Bir oilaga boramiz, er-xotin ikkalasining ham ko‘zi ko‘rmaydi, ammo hayotini juda chiroyli yo‘lga qo‘yib olishgan", dedi.**



Ushbu xonadonga kirganimizdan juda hayratlanganimni aytdim. Uy bekasi ko‘rpachalar to‘shalgan oshxonasiga boshlab bordi. Yo‘laklaru xonalarning tozaligi mayli, oshxonadagi ozodalikni ko‘rib, aqlim shoshib qoldi. Qozon, gaz plitalar yarqiragan, shkaf, stollarning ustida ortiqcha jihoz yo‘q, hammasi uyga mos, ozoda. Vaholanki, bu uyga kirish umuman rejada yo‘q, hatto ular uydami yo yo‘qmikan, degan xavotir bilan tavakkal eshik taqillatgandik.

- Turmush qurganimizga qariyb 20 yil bo‘lib qoldi, - deydi Feruza Faxriyeva. – Ikkimiz ham Samarqand shahridagi ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan 59-maktabda tahsil olganimiz uchun orqavarotdan bo‘lsa-da, bir-birimizni tanirdik. Vaqti kelgach, tanish-bilishlarning tavsiyasi, sovchiligi orqali turmush qurdik. Bu kishining oilasida o‘n nafar farzand bo‘lgani uchun alohida, ijrada yashashimizga to‘g‘ri keldi. Boshqa aka-ukalari ham o‘z kuniga. Bu orada ikki nafar farzandimiz tug‘ildi. Shukurki, ular bugun barcha bolalar boradigan maktabda, biri o‘ninchi, kichigi 5-sinfda tahsil oladi. Uzoq yillar davomida ijarama-ijara yashashimizga to‘g‘ri keldi. O‘sha uylarimizda ham yaqin qo‘shnilar, mahallaning mehrini his qilib turdik. O‘tgan yili, nihoyat, uzoq yillik orzuimizga erishdik. Shu mahalladagi yangi qurilgan uylardan biri bizga berilganda, to‘g‘risi, shunchalik xursand bo‘ldik, biz bu orzuimiz amalga oshishiga ishonchimiz ham kam edi, axir.

Navro‘z Muhammedov, oila boshlig‘i Samarqand davlat universitetining musiqa fakultetini tugatgan. Uzoq yillardan beri Samarqand shahridagi 8-maxsus madaniyat uyida faoliyat ko‘rsatadi. Uydagi sarishtalikka havas qilib, "Omadingiz bor ekan, garchi...", degandim, juda chiroyli, faylasufona javob berdilar.

- Opa, hayotni anglash, oila yuritish, ozodalikka rioya qilish uchun ko‘z bo‘lishi shartmas, farosat bo‘lsa yetarli.

Ha, Nurli kelajak mahallasidagi 34, 35, 36-uylardagi 114 xonadonning barchasida uzoq yillar davomida uy olishda qiynalgan, yillab ijarada yashagan oilalar istiqomat qiladi. Yana bir shunday qahramonimiz – Nargiza Haydarova to‘qqiz farzandning onasi.

- Turmush o‘rtog‘im bilan uzoq yillar davomida Rossiyada ishladik, afsus, ba’zi qiyinchiliklar sabab ahvolimiz o‘nglanmadi, - deya gapirib beradi N.Haydarova. - Yurtimizga qaytgach, yana sinovlar turgan ekan. 13 yil ijarama-ijara yashadik. To‘qqiz nafar bolani katta qilishning o‘zi bo‘ladimi, axir. Ko‘pchilik ahvollaringiz og‘ir ekan, nega to‘qqiz nafar farzand ko‘rdilaringiz, deb savol beradi. Shunday bo‘lishi kerak ekan-da, shukur, ularni katta qilyapmiz, olti qiz, uch o‘g‘limiz bor. Hammasining o‘z o‘rni bor. O‘g‘illarim ishlayapti, hayotimiz izga tushib ketadi, deb o‘ylayman. Axir eng muhimi, boshpanali bo‘ldik-ku.

Nurli kelajak mahallasida 5 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi, ularning ikki yarim ming nafari xotin-qizlar. O‘tgan yili 30 yoshdan yuqori bo‘lgan 980 nafar xotin-qizlarning 84 nafari "Ayollar daftari"-ga kiritildi. Qishloq hududlarida mazkur ro‘yxatdagi ayollarga tomorqada dehqonchilik qilish, parrandachilik, chorvachilik uchun moddiy ko‘mak beriladi. Sharda-chi, bu yerda masalaga qanday yondashilyapti?

- Shahar hududida ham qaramog‘ida nogironligi bor farzand tarbiyalayotgan, boquvchisini yo‘qotgan ayollarga bir martalik yordam ko‘rsatildi, - deydi Mohida Karimova. – To‘g‘ri, ko‘pchilik nogiron farzand katta qilayotgan oila uchun bu bir martalik yordam nima bo‘lardi, deya yozg‘irib qoladi. Lekin uzoq yillardan beri mahallada faoliyat yuritayotgan mutaxassis sifatida aytishim mumkinki, oldin hatto shu yordam ham yo‘q edi.

Ishga muhtojlarga esa ishlab chiqarish korxonalarida mavjud bo‘sh ish o‘rinlari haqida ma’lum qildik. Afsuski, ularda ishlayman, degan talabgorlar juda kam edi. Shundan so‘ng 12 nafar xotin-qizlarimiz “Ishga marhamat!” monomarkazida o‘zlari qiziqqan kasb-hunar bo‘yicha - zamonaviy pardalar tikish, pishiriq pishirish, sartaroshlik, massaj hamshirasi kabi yo‘nalishlardagi bepul kurslarga qatnab, uyida ish bilan band bo‘ldi. 10 nafariga pishiriq pechlari taqdim etilgani, ro‘zg‘origa oz bo‘lsa-da, yordam bo‘ldi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga ajratilgan yangi uyga ko‘chib kelganlarning barchasi boshqa mahalladan kelgan. Bu yil ular bilan ham ish olib boramiz.

Darvoqe, yuqorida qahramonimiz aytganiday, sarishtali bo‘lish uchun ko‘z shart bo‘lmaganidek, ro‘zg‘orni uddalash uchun ham katta boylik shart emas. Ozgina harakat va zarur bo‘lganda turtki, yordam bo‘lsa kifoya. Uddalab ketish uchun shuning o‘zi yetadi.

**Gulruh MO‘MINOVA.**

# XUSUSIYMI YOKI DAVLAT TASHKILOTI

## qaysi birida bo‘lmasin, ishlayotgan ayol “dekret” puli oladi. Faqat...

**Nafaqaga talabgor ayol kamida uzluksiz 6 oy davomida o‘sha korxonada ishlagan bo‘lishi kerak. Va Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlar bazasida kamida shuncha davr uchun daromadlari va soliq to‘lovlari aks ettirilgan bo‘lishi talab qilinadi.**

Bundan tashqari, Yagona milliy mehnat tizimida rasman band bo‘lgani, bu haqdagi buyruq kiritilgan va mehnat daftarchasi ochilgani hisobga olinadi.

Xususiy sektorda ishlaydigan ayolga ish staji va oylik maoshi inobatga olgan holda, “dekret” puli 6 million so‘m chiqsa, 2 million so‘mi davlat tomonidan kompensatsiya qilinadi. Qolgan qismini tadbirkor to‘lashi kerak. Ayollarga dekret pulini to‘lash bosqichma-bosqich tadbirkor zimmasidan olinadi, kelgusida to‘liq davlat tomonidan qoplanadi.

Muhimi tomoni shundaki, dekretga chiqishdan oldin ayol kishi tibbiyot muassasasidan ro‘yxatdan o‘tganda, ism-familiya va telefon raqamlarini to‘g‘ri aytishi kerak. Bu keyinchalik nafaqa tayinlashda tushunmovchiliklarning oldini oladi.

### “Dekret” pulini olish uchun qayerga murojaat qilish kerak?



Hech qayerga, chunki jarayon avtomatlashtirilgan. Nafaqa tayinlangandan keyin pul ayolning kartasiga tashlab beriladi. Agar bank kartasi bo‘lmasa, o‘ziga yaqin Xalq bankidan olishi mumkin. Bu haqda ro‘yxatga olingan telefon raqamiga SMS yuboriladi.

Unutmang, internetdagi havolalar orqali karta raqamingizni kiritib, dekret pulini olish mumkinligi aytilgan e’lonlar yolg‘on. Nafaqa sizning ishtirokingizsiz to‘lanadi.

**Diyor HUSANOV,**
**Ombudsmanning viloyatdagi vakili.**

**Bu muassasaga joylashish uchun 2021-yildan beri 25 nafar bemor navbatda turibdi. Lekin joylashganlar umrbod shu yerda istiqomat qilishadi, demakki, joy bo‘shashi oson emas. Yildan yilga navbatda turuvchilar soni oshib boraveradi. Ayni paytda muassasada 300 ga yaqin bemor istiqomat qiladi. Ular orasida mamlakatimizning barcha viloyatlaridan ayollar bor. Ayniqsa, Toshkent viloyati hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasidan ko‘proq.**

"Muruvvat" uyidan reportaj:

# "Non topishga qiynalgan kunlarimiz bo‘lgan"



Gap Urgutdagi "Muruvvat" nogironligi bo‘lgan ayollar internat uyi haqda ketmoqda. Ko‘pchilik yaxshi biladi, bu yerda I, II guruh nogironligi bo‘lgan, asosan ruhiy xastaliklardan aziyat chekayotgan fuqarolar davolanadi. Muruvvat uyining hovlisiga kirganimizdanoq bu yerda sharoitlar boshqacha ekanligiga guvoh bo‘ldik. Mutasaddilarning so‘zlariga ko‘ra, nafaqat tashqi ko‘rinish, balki bemorlarga ajratilayotgan dori darmon, oziq-ovqat uchun mablag‘ ham keskin o‘zgargan.

- To‘g‘risi, bundan ikki-uch yil oldingi holat, sharoitni hatto eslashni ham istamaymiz, - deydi mazkur muassasa rahbari Alisher Saidov. – Esimda, hatto bemorlarga kezi kelganda non topib berishga ham qiynalib qolgan paytlarimiz bo‘lgan. 2020-yilda tegishli qarorlar asosida Urgut "Muruvvat" nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uyi hududida 300 o‘rinli nogironligi bo‘lgan ayollar internat uyi qurilib, 2021-yilda ishga tushirildi. Ilgari erkak va ayollar bir binoda, 450 o‘rinli muassasada yashab, davolangan bo‘lsa, endilikda erkaklar uchun 250 o‘rinli, ayollar uchun esa 300 o‘rinli, barcha sharoitlarga ega bo‘lgan binolar foydalanishga topshirildi. O‘rinlar soni ham 100 taga oshdi. Har bir bemorning dori vositalariga o‘rtacha 4,5 ming so‘mdan sarflansa, oziq-ovqatga 30 ming so‘mga yaqin, gigiyena vositalariga kishi boshiga 2700 so‘mdan to‘g‘ri keladi. Bir paytlar umr bo‘yi shu yerda yashaydigan bemorlar uchun hatto gigiyena vositalari ko‘zda tutilmagan edi.

Hozir bu raqamlar ba’zilar uchun arzimasdek tuyulishi mumkin. Lekin bu yerda uzoq yillardan beri ishlayotganlar, bemorlar bu raqamlar ortidagi o‘zgarishlarda qanchalik farq borligini juda yaxshi his qilishadi.

O‘tgan yillar davomida faqat homiylar yordamigagina kunimiz qolgan paytlar bo‘ldi. Mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan muruvvat uylariga e’tibor qaratilishi inson qadri ulug‘lanishi tamoyili bilan bevosita bog‘liq.

Muassasada bemorlar yashab, davolanish bilan birga, tikish-bichishni o‘rganishi, turli o‘yinchoq va buyumlar yasashi, qo‘lidan kelgani suratlar chizishi mumkin.

To‘g‘risi, mehnat xonasida yasalgan turli o‘yichoqlarni ko‘rib, avvaliga ular shu yerda tayyorlanganiga shubha qildim. Ammo tushlikdan so‘ng bu yerda yashovchilar mehnat xonalariga tushib, mashg‘ulotlarga kirishib ketganda, fikrimdan uyaldim. Ayniqsa, Sanobar opa chizgan suratlarni, nazarimda, sog‘lom odam ham chiza olmaydi. Nilufar yasagan o‘yinchoqlarni esa mohir hunarmand tomonidan tikilgan, deb o‘ylaysiz.

Iroda she’r aytib, ko‘pchilik muxlislarini yig‘latib yurishga usta *(uning o‘zi o‘qigan ta’sirli she’rni videolavha orqali ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, QR bilan maqolaning elektron shakliga o‘ting).*

Darvoqe, internat uyida boy kutubxona bor. Yashovchilarning aytishicha, kutubxonachi opa Iroda singari kitobga qiziquvchilarga kitob o‘qib beradi, she’r yodlatadi.

Internat uyining hovlisida sport maydonchalari, jonli burchaklar ham bor. Kurka, quyon, qo‘y, buzoq kabi uy hayvonlari parvarishlanadi. O‘rtacha kattalikdagi maydonda esa issiqxona tashkil etilgan, hozir u yerda ko‘katlar barq urib yashnab turibdi. Bir so‘z bilan aytganda, bir xo‘jalikka zarur bo‘lgan barchasi muhayyo.

300 nafar bemor, 214 nafar xodim mehnat qilayotgan jamoa bilan bu yerda mehnat qilish osonmas. Ruhiy xasta bemor bilan ishlashning o‘ziga xosliklari bor, bir necha yillik xodimlar bu masalada tajriba to‘plagani, ularning "tili"ni yaxshi tushunishlari muomala munosabatlarida ham ko‘rinib turibdi.

O‘rta, og‘ir darajadagi bemorlar turli bo‘limlarda yotqizilgani tufayli ular bilan ishlash shunga qarab belgilanadi. Mutasaddilarning aytishlaricha, keyingi yillarda bemorlarning umr davomiyligi oshgan. Kim uchundir bu fikrlar shafqatsizroq tuyulsa-da, ammo muassasaga joylashish uchun navbatda turgan 25 nafar bemor faqatgina bu yerda yashovchilar olamdan o‘tgan taqdirdagina, o‘rin bo‘shagach, mazkur joyda yashash imkoniga ega bo‘lishadi. Ya’ni, ularning bu yerga joylashuvi shu vaziyatga yoki davlat tomonidan ta’minot ko‘payishiga bog‘liq.

Yana bir masala, juda ko‘p viloyatlarda shu kabi muruvvat uylari bo‘lgani holda nega o‘sha hududlardan ham bemorlar soni ko‘pligi kishini o‘ylantirib qo‘yadi.

**Gulruh KOMILOVA.**



# HAMMA BUVIJONLAR HAM SHUNDAYMI?

**Ko‘hnadam ko‘chasi, 11-uy. Payariq tumanidagi mo‘‘jazgina, fayzli bir xonadon. Sirtdan qaraganda boshqa xonadonlardan unchalik farq qilmasligi, alohida ajralib turmasligi mumkin, ammo har doim ochiq turadigan ko‘cha eshigidan ichkariga qadam qo‘yishingiz bilan bu hovli, ostonada kishini o‘ziga jalb qiladigan, ohanrabodek tortadigan nimadir borligini his etasiz. Bu balki erta bahordan to kech kuzgacha qiyg‘os ochilib, yashnab turadigan rango-rang gullarning iforimi va yoki saranjom-sarishta hovlining fayzimi yo bo‘lmasa, xonadon sohiblarining ochiq yuzligi, odamoxunligimi, bilmadim. Balki, xonadondagi fayz shu oilaning buvijonisi Ra’no opaning mehri, sarishtaligi tufayli bo‘lsa kerak.**

Bir etak shirindan-shakar nevaralar tarbiyalayotgan ustozimiz Ra’no Mahkamova ayni paytda nafaqada bo‘lsalar-da, tinib-tinchimaydilar. Hovli turfa xil anvoyi gullar to‘lqinida chayqaladi. Ozodalik va orastalikni hayotining bosh mezoniga aylantirgan ustozim kelini Habiba yangaga turmush saboqlaridan dars berib charchamaydi. Ro‘zg‘or yuritish tartibi, mehmon kutish odobi, taom pishirish qoidalarini ipidan ignasigacha o‘rgatadi.

Ustozimiz ziyoli inson bo‘lganligi uchun nevaralari Shahnoza va Alisherning darslariga alohida vaqt ajratib, kuzatib boradi, yordamlashadi. Kutubxonalarga yetaklab borib, bolalarga xos kitoblar olib, mutolaa qilishni o‘rgatadi. Shu sababli ikki nevarasiyam maktabda a’lochi. Ustozni ziyorat qilgani tez-tez borib turaman. Har gal borsam, xuddi ilgarigidek, dastlab o‘qigan kitoblarim haqida so‘raydi. Tuman hayoti, yangiliklar, dunyoda bo‘layotgan voqea-hodisalar ustozim nigohidan chetda qolmaydi. Mo‘‘jazgina kutubxonasida durdona asarlar, nodir adabiyotlar o‘rin olgan. Bolalar adabiyoti deysizmi, gazeta-jurnallar, xullas, ajoyib ma’naviyat dunyosi! Ustozim bilan suhbatimiz ham adabiyot olamidagi yangiliklar, gazetalarda chop etilgan maqolalar haqida fikrlashishlar bilan o‘tadi. Har bir suhbatimizda yangi fikrlar olaman ustozimdan. Hammani kitob o‘qishga da’vat etadi. Telefonidagi elektron kitoblarni ham doimiy mutolaa qilib boradi. Ustozimning yana bir fazilati – hech qachon birovning orqasidan gapirmaydi, g‘iybat qilmaydi. Kattaga kattaday, kichikka kichikday muomala qiladi. Oddiy gaplarida ham hikmat bo‘ladi.

Balki hamma buvijonlar xam shundaydir. Ammo men ustozimni, u kishining oilasini, oiladagi ma’naviy muhitni yaqindan bilganim, ibrat olganim uchun ushbu fikrlarni qog‘ozga tushirdim.

**Sevinch SHIRINBOYEVA,**
**SamDU o‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi.**

**Bayramda sovg'a olishni kutmaydigan ayol bo'lmasa kerak. Ayniqsa, ta'lim tizimining turli bo'g'inlarida ishlaydigan xotin-qizlar uchun bu bayram dil izhorlariyu tabriklarga boy kun bo'ladi. Lekin buni qarangki, ushbu bayramda o'quvchilaridan sovg'a olishga ko'ngli chopmaydigan soha vakillari ham bor ekan. Ularning ayrimlarining fikri bilan qiziqdik.**

# Bayramda sovg'a olishni yoqtirmaydigan o'qituvchi



**BAYRAMGA KUTILMAGAN E'TIBOR**

- 30 yildan buyon maktabda faoliyat olib boraman, - deydi Samarqand shahridagi 61-eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabning matematika fani o'qituvchisi Hurriyat Benaliyeva. - Alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlaganim uchun hech qachon ulardan sovg'a kutmaymiz. Aksincha, sinfda tahsil oladigan qizlarni xursand qilishga intilamiz. Garchi bu bolalar uchun matematikani o'zlashtirish qiyin bo'lsa ham fanni yaxshi ko'rishadi. Bundan bir necha yil oldin o'quvchilarim imo qilib, keling deb, sinfga tortadi, hayron qoldim. Sinfga kirishim bilan bolalar qarsak chalib, tabriklashdi. Ochig'i, kutilmagan voqea bo'ldi. Ularning sinf rahbari bo'lmasam ham menga bo'lgan e'tibordan quvondim. Bu dargohga o'quvchilar sovg'a ko'tarib kelmaydi bunga yo'l ham qo'ymaymiz.

**BAYRAM KO'NGLIMDA YOMON IZ QOLDIRGAN**

- 8-martda bahorning tarovati, go'zalligini his qilaman. Lekin negadir bayramni unchalik yoqtirmayman. Ehtimol, bolalik xotirlalarimni yodga solgani uchundir. Boshlang'ich sinf o'qituvchimizga imkoniyatimizdan kelib chiqqan holda sovg'a olib borardik. Sovg'a uchun ommaviy pul yig'ilmasdi. Ustozimiz bizni doska yoniga bir qator qilib terib qo'yardi. Shundan so'ng bitta-bittalab barchamizdan sovg'alarni olardi. Kimning sovg'asi yaxshiroq bo'lsa, olardi, yoqmagan sovg'ani qaytarib berardi. Sovg'ani olmasa, bizga juda og'ir botardi. Sovg'am o'zimda qolib ketmasligi uchun bir bayramda uydan onamning chiroyli guldonini olib borganman.

Keyinchalik, yuqori sinfda biologiya fani o'qituvchisi bizga rahbarlik qildi. U kishi hammamizni teng ko'rar, bolalarga juda mehribon edi. Hatto uylariga olib borib, bizni mehmon qilardi. Shu o'qituvchimizning bizga bo'lgan alohida mehri tufayli o'zim ham o'qituvchilik kasbini tanladim.

**TOKCHADAGI GUL**

- Bu kun xotin-qizlarga har qanday holatda ham bayramona kayfiyat bersa kerak, - deydi Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi Maxsuda Bekmuradova. – Sababi, bahor havosi, tabiat uyg'onishi, atrofdagi iforlar – hammasi kishiga o'zgacha zavq, kayfiyat beradi. Shuning uchun bolaligimizdan onamizni, opa-singlimizni tabriklashdan xursand bo'lganmiz. Faqatgina shu bayramda sovg'a olayotgan odam emas, uni tortiq qilayotgan kishining ham kayfiyati o'zgacha bo'ladi, nazarimda.

Yillar o'tib, ulg'ayib, o'zim ham muallima bo'ldim. To'g'risi, bayramda talabalardan sovg'a kutmayman. Bu bayramda faqat yaqin kishilaringdan sovg'a olish lozim, degan fikrdaman.

**Munisa SHAMSIYEVA.**

# Uyda beka, ishxonada rahbar, jamoatchilik uchun vakil

**O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi o'z saylovoldi dasturida bu borada olib borilayotgan davlat siyosatini qo'llab-quvvatlab, ijtimoiy va siyosiy hayotda xotin-qizlarning to'liq va teng ishtirokini ta'minlash, davlat organlarining barcha bo'g'inlarida qaror qabul qilish jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni belgilab olgan.**

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar natijasi o'laroq partiya viloyat kengashi tarkibida 31 ming nafardan ortiq xotin-qizlar jamlangan. Ular ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etib, havas qilsa arzigulik natijalarga erishmoqda. Ana shunday e'zozga loyiq partiyadoshimiz xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi deputati Muhiba Sayfiddinovadir.

U ayni paytda "Agrobank"ning Toyloq tuman filiali boshqaruvchisi sifatida faoliyat yuritmoqda. Kasbiy faoliyatida qator yutuqlarga erishayotgan Muhiba Sayfiddinova deputat sifatida ham o'zining vakolatidan unumli foydalanadi. Ba'zan ish vaqti boshlanguncha erta tongdan, ba'zan ishdan chiqib, kech bo'lsa ham saylovchilarining holidan xabar olishga, okrug hududida yechimini kutayotgan muammolar bilan shug'ullanishga shoshadi.

"Ham rahbar, ham deputat hamda oila bekasi - bu uchalasini teng ushlash sizga qiyinchilik tug'dirmayaptimi?", degan savolga esa "Inson-da xohish bo'lsa, barchasini birdek olib bora oladi. Deputatlikka nomzodimni qo'yishdan avval rosa o'ylaganman, menga ishonch bildirgan odamlarning ishonchini oqlay olamanmi, ularni rozi qila olamanmi deb. O'ylaymanki, menga ishonch bildirganlarga ozmi-ko'pmi nafim tegyapti", deydi.

U deputatlikka saylangan Xo'ja Zudmurod, So'fi Roziq, Ko'kmasjit, Yangixayrabod mahallalarida bo'lganimizda saylovchilarning yo'lni ta'mirlash, ichimlik suvi quvurlarini ta'mirlash, elektr energiyasi, gaz bilan bog'liq muammolariga vaqtida yechim topilmoqda.

- Hududdagi muammolarni tizimli o'rganish va yechimini topish choralarini ko'ryapmiz, - deydi M.Sayfiddinova. – Chunki har bir mahallada ko'pchilikni o'ylantirayotgan muammolar turlicha, qayerdadir simyog'och, qayerdadir transformator, boshqa joyda asfalt yo'l, keyingisida ichimlik suvi quvurini ta'mirlash kerak. O'tgan yil davomida 30 dan ortiq deputatlik so'rovlari chiqardim. Ularda ko'tarilgan aksariyat masalalar hal bo'ldi. Shu bilan birga, saylov okrugim hududidagi kam ta'minlangan oilalar holidan muntazam xabar olib turaman. 35 nafar xotin-qizga bankdan kredit olib, o'zini o'zi band qilish yoki tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishiga ko'maklashdim. Odamlar daromadini oshirsak, hududdagi ko'pgina muammolar o'z yechimini topadi.



**"Adolat" SDP viloyat kengashi axborot xizmati.**



## SAMARQANDLIK XOTIN-QIZLAR RESPUBLIKADA BIRINCHI

*Madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi tasarrufidagi sport maktablarining ayol o'qituvchilari o'rtasida sportning gandbol turi bo'yicha respublika musobaqasi bo'lib o'tdi.*

*Murosasiz kechgan bahslarda samarqandlik xotin-qizlar g'oliblikni qo'lga kiritib, respublika kengashining ko'chma kubogiga ega chiqdi. Keyingi o'rinlar Toshkent shahri va Sirdaryo viloyati xotin-qizlariga nasib etdi.*

**Ko'chatchilik kasbmi yoki tomorqadagi yumushmi? Bu faoliyatni o'rganish uchun qayerda o'qish kerak yoki shogird tushib o'rganiladimi, ajdodlardan meros qilib olinadimi? Bu ishda qancha daromad topiladi, olingan foydadan oila tebratish mumkinmi?**

# Ko'chatchi narxga talashmaydi, daromadi bilan maqtanmaydi



Aslida, ko'chat yetishtirish bir qaraganda osondek tuyuladi, niholdan qalamcha olinadi, yerga ko'miladi, ma'lum vaqtdan keyin ildiz hosil bo'lib, barg chiqara boshlaydi. Tayyor bo'lgan ko'chatni bozorga chiqarasanu sotasan. Bir qarashda oddiy tuyulgan bu kasbning ham o'ziga yarasha sir-sinoati bor.

Jomboylik Musurmon Hotamov 35 yildan buyon ko'chat yetishtirib, ularning "injiqlik"larini ham o'zlashtirgan ko'chatchilardan. Asli kasbi o'qituvchi bo'lgan Musurmon boboning ko'chat yetishtirishga qiziqishi ham tasodifan uyg'ongan ekan.

- 1985-yilda qishlog'imizga tibbiyot instituti talabalari paxta terimiga kelishdi va biznikiga joylashishdi, - deydi M.Hotamov. – O'qituvchilardan biri ko'chat yetishtirish bilan shug'ullanarkan va menga hamkorlik taklif qildi. Tomorqamning 10 sotix maydoniga turli xil mevali ko'chat qalamchalarini ekdik. U menga ko'chat tayyorlashning barcha jihatlarini o'rgatdi. Uch yildan so'ng tayyor bo'lgan ko'chatlarni o'zi oldi, bir qismi menga qoldi. Turmush o'rtog'im bilan bozorlarga chiqarib sotdik. Ishonasizmi, o'shanda ko'chatdan kuniga 150-200 so'm daromad qilardik, bu kamida bitta katta qo'y puliga teng edi. Maktabda 38 yil ishlab, pensiyaga chiqqanimdan so'ng 1990-yildan boshlab ko'chat yetishtirish bilan shug'ullanaman. Yiliga tomorqadagi 8-10 sotix maydonda 10-15 mingtagacha ko'chat yetishtiraman, payvand qilaman. Hozir ko'chat yetishtirish uchun daladan 1 gektardan ortiq yer olganmiz, u yerga qalamcha ekib, tayyor bo'lgan ko'chatni sovuq urmasligi uchun qish oldidan tomorqaga keltirib qo'yamiz.

Bog'bon tomorqasida gilosning "Napoleon", "Mintapol", "Skina", "Shpanka" navlari, nokning "Dyushes", "Eron noki", "Hechechuri" kabi xorijdan keltirilgan navlardan mahalliy iqlimga mos ko'chatlar tayyorlarkan. Olmaning "Toshkent", "Gala", "Semerenko", "Boyka", "Golden", "Zelyonka", olxo'rining "O'zbekiston go'zali", "Ispanka", "Vengerka", o'rikdan "Ko'ri Sodiq", "Ruhijon", "G'o'lini", shaftolining "Lola", "Anjir shaftoli", "Start", behi, yong'oq kabi mevali ko'chatlarini payvandlaydi. Har qancha urinsak ham bog'bon bobodan ko'chatning yillik daromadi qancha ekanligini bilolmadik. Daromad maqtanilmaydi, ko'chat sotishda narxga talashilmasligini bildirdi. Eng muhimi, ko'chatni payvandlash va ekishda e'tibor qilish kerak bo'lgan jihatlarni aytib o'tdi.

- Olxo'rini yovvoyi olchaga payvand qilgan yaxshi, olma olmaga, nokni behiga payvand qilsa bo'ladi, lekin nokni o'ziga, hech bo'lmasa, yovvoyi nokka payvand qilsa, yaxshi hosil beradi. Chunki behiga qilingan payvand tez hosilga kiradi, ammo tez qariydi, tubi qo'porilib ketadi. Asosiysi, tanasi katta bo'ladigan mevaga payvand qilinsa, ko'chat yaxshi rivojlanadi, hosildor bo'ladi, ko'p yillar meva beradi. Ko'chat ekishda ham kovlangan tuproqni ko'chat tubiga solmasdan, boshqa, quyosh ko'rgan tuproq solib ekish va suv quyish lozim. Yangi tuproq va suv loy bo'lib, ildizga yopishadi, bu ko'chatning shu yerga tez moslashishiga yordam beradi.

**O'ktam XUDOYBERDIYEV.**
**Sohib SAYFULLAYEV olgan suratlar.**

# "Munis onalarga bayram tuhfasi"



**Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan viloyatimizning barcha hududlarida bayram tadbirlari o'tkazilmoqda. Paxtachi tumani Qarnabota mahallasida shu nomli ko'rgazma tashkil etildi.**

Unda tumandagi 25-bolalar musiqa va san'at maktabining "Amaliy san'at" yo'nalishida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilar ustozlari ko'magida tayyorlagan turli guldasta, taqinchoq va boshqa hunarmandchilik mahsulotlari namoyish qilindi.

O'quvchilar o'zlari yasagan buyumlarni tayyorlash jarayonlarini ko'rsatib berdi hamda ularni onalariga sovg'a qilishdi.

**Mashhura BAXRINOVA.**

**Payariq tumanidanman, 2018-yilda Samarqand veterinariya meditsinasi instituti zooinjeneriya fakultetining bakalavriat bosqichini tugatdim.**

# Magistr bo'lib, imtiyozdan foydalanyapman

Turmushga chiqqach, uch yil farzand tarbiyasi bilan band bo'ldim. Lekin baribir ko'nglimda magistraturada o'qishni davom ettiraman, degan niyatim bor edi. Ayolning boshiga oila va bolalar tashvishi tushgach, kelajak rejalari ancha o'zgarib ketarkan. Yaxshi xonadonga kelin bo'ldim, ilmni qadrlaydigan turmush o'rtog'im oradan shuncha vaqt o'tsa ham magistraturada o'qishni davom ettirishimga to'sqinlik qilmadi, aksincha, qo'llab-quvvatladi.

2022-yil universitetning magistratura bosqichiga kontrakt asosida o'qishga qabul qilindim. 2022-yil 7-mart kuni imzolangan Prezident farmoni asosida 2022-2023-o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning shartnoma to'lovlari davlat budjetidan qoplab berilishi belgilandi. Bu biz uchun katta imkoniyat bo'ldi.

Mutaxassisligim – zootexnik. Ayni kunda universitetning magistratura bosqichida, "Yaylov chorvachiligi – asalarichilik, ipakchilik, qorako'lchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash" yo'nalishining 2-kursida tahsil olyapman. Ilmiy ishim mavzusi "Tog' va tog'oldi hududlarida qorako'l mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligi" bo'lib, kelajak rejalarim bisyor. Mamlakatimiz iqtisodiyotining eng sermahsul va daromadli sohasi bo'lgan chorvachilik borasida hozirgi kunda ilmiy izlanishlarga juda muhtojmiz. Bu yo'lda o'zimning bor bilim va tajribalarimni sarflashga tayyorman.

**Shoira SAYDULLAYEVA,**
**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti magistri.**

# CHIQINDIDAN PUL QILAYOTGAN AYOL

**Kattaqo'rg'on tumaniga xizmat safariga borganimda chiqindidan daromad qilayotgan tadbirkor Gulmira Jumayeva haqida eshitib, suhbatlashish istagi paydo bo'ldi.**

- Ko'p yil xorijda ishlab, oila boqish maqsadida chiqindi saralash bilan shug'ullanganman, - deydi G.Jumayeva. – Dastlab o'zim ham chiqindi saralagan bo'lsam, keyinchalik korxonada ish boshqaruvchi bo'lib ishladim. Yurtimizga qaytib kelgach, chiqindilarni poligonga olib borib, yoqib yuborishlarini yoki ko'mib tashlashlarini bilib, bu sohada ishlash haqida o'ylab qoldim. Chiqindidan ikkilamchi xomashyolarni saralab, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga qaror qildim. Bu sohada ishlayotgan tashkilotlarga borib uchradim, ko'pgina tadbirkorlar bilan suhbatlashdim. Biroq ko'pchiligi shu ish bilan shug'ullanishimga ishonmadi. "Ayol kishi ekan, qo'lidan kelmaydi, bir-ikki oy ishlab, tashlab ketadi", deb o'ylashdi. Lekin men tanlagan yo'limdan qaytmadim. Shu yo'l orqali nafaqat oila boqishim, balki katta daromad topishimni bilardim.

Tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun Gulmira Jumayeva dastlab "Anvarjon biznes invest" MChJ klasteri tashkil etib, davlat-xususiy sherikchilik asosida "Toza hudud" MChJning Kattaqo'rg'on tuman bo'limini xususiylashtirib oldi.

O'tgan yili tadbirkor Narpay va Paxtachi tumanlariga ham xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'ydi. Hozirda "Anvarjon biznes" MChJ korxonasining 40 ga yaqin yuk mashinalari Kattaqo'rg'on va Narpay tumani mahallalariga xizmat qilayotgan bo'lsa, klasterga qarashli yana bir "Mansurbek qo'rg'on-biznes" MChJ korxonasi Paxtachi tumanidagi 59 mahalla bilan ishlaydi. Bu ishda unga turmush o'rtog'i va o'g'illaridan tashqari yana 300 ga yaqin ishchi ko'mak beryapti.

Xitoydan chiqindi tashuvchi, ortuvchi maxsus texnikalar, chiqindi yig'ish shoxobchalari, konteynerlar, qayta ishlash qurilmalari olib kelindi. Bu loyihalar uchun qariyb 17 milliard so'm mablag' sarflandi.



- Shu vaqtgacha ish va oilam bilan o'ralashib, o'qimagan edim, - deydi Gulmira Jumayeva. – Ayni paytda oliy ma'lumotli bo'lish istagida Toshkent davlat agrar universitetining Samarqand filialida sirtdan o'qiyapman. Tadbirkorlikning nazariy jihatlarini ham o'rganyapman.

So'zida sobit, jasoratli Gulmira Jumayeva chiqindidan milliardlab daromad qilmoqda. Yangi maxsus mashinalar, zamonaviy uskunalar xarid qilmoqda.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

# “SAMARQAND KAMALAK INVEST TEKSTIL”

MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

*aziz opa-singillarimiz va mehribon onaxonlarimizni*

## XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI

*bilan tabriklaydi.*

**BARCHANGIZGA SIHAT-SALOMATLIK, GO‘ZALLIK VA OILAVIY BAXT TILAYMIZ!**

Mahsulotlar sertifikatlangan.

MART

7 8 15 14



# PAST DARG‘OM TUMANI XALQ TA’LIMI BO‘LIMI JAMOASI

*Mo‘‘tabar ayollarimiz va opa-singillarimizni*

## 8-mart –

*Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan qutlaydi.*

***Yoshlik, go‘zallik sizlarni aslo tark etmasin, baxtimizga doim sog‘-salomat bo‘ling!***



# PAST DARG‘OM TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI JAMOASI



*Munis onajonlarimiz, mehribon ayollarimiz va go‘zal singillarimizni*

## *Xalqaro xotin-qizlar kuni*

*bilan qutlaydi. Qalbingizdan quvonch, yuzingizdan tabassum arimasin, aziz opa-singillar!*








## “JUMA ELEVATORI” AKSIYADORLIK JAMIYATI

# AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

**“Juma elevatori” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig‘ilishi 2023-yil 30-mart kuni (haftaning payshanba kuni) soat 14:00 da Samarqand viloyati Past Darg‘om tumani, Juma shahri, Fitrat ko‘chasi, 2-uy manzilida joylashgan “Juma elevatori” aksiyadorlik jamiyati ma'muriy binosi majlislar zalida o‘tkazilishini ma'lum qiladi.**

**Jamiyat aksiyadorlarining 2022-yil yakuni bo‘yicha yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibida quyidagi masalalar muhokama qilinadi:**

**UMUMIY YIG‘ILISH KUN TARTIBI:**

*1. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining sanoq komissiyasi va ishchi prezidiumi a'zolarini saylash;*

*2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibi va reglamentini tasdiqlash;*

*3. Jamiyat kuzatuv kengashining 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha hisobotini tasdiqlash;*

*4. Jamiyatning 2022-yil moliya-xo‘jalik faoliyati yakunlari va “Biznes rejasi”ning bajarilishi to‘g‘risida jamiyat ijro organi rahbarining hisobotini tasdiqlash;*

*5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi PQ-4426-sonli qarori talablariga muvofiq 2022-yil yakuni bo‘yicha boshqaruv raisining ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo‘yicha direktorining 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha hisobotini tasdiqlash;*

*6. Jamiyatning 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisoboti hamda foyda va zararlarini tasdiqlash;*

*7. Jamiyat taftish komissiyasining 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha tekshirish hisoboti va xulosasini tasdiqlash;*

*8. Jamiyatning 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha tashqi auditorlik tashkiloti “AFROSIYOB AUDIT STANDART” MChJning xulosasi (MHXS, MHMS) hamda 2022-yil uchun SMK, SYK va ularning bajarilish foizlarining hisoblangan miqdorini tekshirish natijalari yuzasidan jamiyat tashqi auditorining xulosasini eshitish va tasdiqlash;*

*9. 2022-yil yakuni bo‘yicha jamiyat foydasini taqsimlash, ustav fondidagi aksiyalarga hisoblanadigan dividend miqdorini belgilash va dividend to‘lash muddatini tasdiqlash;*

*10. Jamiyatning 2023-yilgi faoliyati uchun kuzatuv kengashi a'zolarini, kotibini qayta saylash va ularni moddiy rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish;*

*11. Jamiyatning 2023-yil faoliyati uchun taftish komissiyasi a'zolarini qayta saylash va ularni moddiy rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish;*

*12. Jamiyatning 2023-yil uchun ijroiya organi rahbari va a'zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi muddatini uzaytirish va ularni moddiy rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish;*

*13. Jamiyatda 2023-yil yakuni bo‘yicha auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditor xizmati ko‘rsatuvchi tashkilotlar taklifini ko‘rib chiqish hamda ularga to‘lanadigan xizmat haqi miqdorini belgilash;*

*14. Koorporativ boshqaruv kodeksi talablariga muvofiq jamiyatda 2022-yil yakuni bo‘yicha mustaqil tashkilot tomonidan o‘tkazilgan koorporativ baholash xulosasini eshitish va tasdiqlash;*

*15. Jamiyatda xaridlar jarayonining shaffofligi, asosliligi, shu jumladan, mahalliy mahsulotlarning sifat va narxi bo‘yicha belgilangan parametrlarga muvofiqligini hisobga olgan holda import xaridlarini, shuningdek, valyuta resurslaridan samarali foydalanilishi to‘g‘risida tashqi audit xulosasini tasdiqlash.*

Aksiyadorlarni ro‘yxatga olish 2023-yil 30-mart kuni soat 13:00 dan 14:00 ga qadar davom etadi.

Yig‘ilishga aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari va ularning vakillari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnomalar bilan kelishlari so‘raladi.

**Murojaat uchun telefon: +99866-465-15-27.**

**Jamiyatning elektron pochta manzili:**

**jumadon@mail.ru**

Hurmatli aksiyadorlar! Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi axborot va boshqa ma'lumotlarni jamiyat aksiyadorlariga sifatli va tezkor ravishda yetkazilishini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq elektron pochta orqali amalga oshirilishini inobatga olib, sizga elektron pochta manzilingizni (Email.) taqdim etishingiz lozimligini ma'lum qilamiz.

**JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.**

## “SAMARQANDDONMAHSULOTLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI

# AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

**“Samarqanddonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining 2022-yil yakuni bo‘yicha umumiy yig‘ilishi 2023-yil 30-mart kuni (haftaning payshanba kuni) soat 10-00 da Samarqand shahri Ziyokorlar ko‘chasi, 4-uy manzilida joylashgan jamiyat majlislar zalida o‘tkazilishini ma'lum qiladi.**

**Jamiyat aksiyadorlarining 2022-yil yakuni bo‘yicha yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibida quyidagi masalalar muhokama qilinadi:**

**UMUMIY YIG‘ILISH KUN TARTIBI:**

*1. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining sanoq komissiyasi va ishchi prezidiumi a'zolarini saylash;*

*2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibi va reglamentini tasdiqlash;*

*3. Jamiyat kuzatuv kengashining 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha hisobotini tasdiqlash;*

*4. Jamiyatning 2022-yil moliya-xo‘jalik faoliyati yakunlari va “Biznes rejasi”ning bajarilishi to‘g‘risida jamiyat ijro organi rahbarining hisobotini tasdiqlash;*

*5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi PQ-4426-sonli qarori talablariga muvofiq 2022-yil yakuni bo‘yicha ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo‘yicha direktorning hisobotini tasdiqlash;*

*6. Jamiyatning 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisoboti hamda foyda va zararlarini tasdiqlash;*

*7. Jamiyatning 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha tashqi auditorlik tashkiloti “Mustaqil-M” MChJning xulosasi (MHXS, MHMS) hamda 2022-yil uchun SMK, SYK va ularning bajarilish foizlarining hisoblangan miqdorini tekshirish natijalari yuzasidan jamiyat tashqi auditorining xulosasini eshitish va tasdiqlash;*

*8. Jamiyat taftish komissiyasining 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha xulosasini tasdiqlash;*

*9. 2022-yil yakuni bo‘yicha jamiyat foydasining taqsimlanishi, ustav fondidagi aksiyalarga hisoblanadigan dividend miqdorini belgilanishi va dividend to‘lash muddatini tasdiqlash;*

*10. Jamiyatning 2023-yilgi faoliyati uchun kuzatuv kengashi a'zolarini qayta saylash va ularni moddiy rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish;.*

*11. Jamiyatning 2023-yilgi faoliyati uchun taftish komissiyasi a'zolarini qayta saylash va ularni moddiy rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish;*

*12. Jamiyatning 2023-yil faoliyati uchun ijro organi rahbari va a'zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi muddatini uzaytirish va ularni moddiy rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish;*

*13. Korporativ boshqaruv kodeksi talablariga muvofiq jamiyatda 2022-yil yakuni bo‘yicha mustaqil tashkilot tomonidan o‘tkazilgan korporativ faoliyatni baholash xulosasini eshitish va tasdiqlash;*

*14. Jamiyatda 2023-yil uchun tashqi auditorlik tekshiruvini o‘tkazishga auditor xizmatini ko‘rsatuvchi tashkilotlar taklifini ko‘rib chiqish hamda ularga to‘lanadigan xizmat haqi miqdorini belgilash;*

*15. Jamiyatda xaridlar jarayonining shaffofligi, asosliligi, shu jumladan, mahalliy mahsulotlarning sifat va narx bo‘yicha belgilangan parametrlarga muvofiqligini hisobga olgan holda import xaridlarini, shuningdek, valyuta resurslaridan samarali foydalanilishi to‘g‘risida tashqi audit xulosasini tasdiqlash.*

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning ro‘yxatini tuzish hamda yig‘ilish o‘tkazilishi haqida xabarnoma olish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2022-yil 3-iyun kuniga va umumiy yig‘ilishda qatnashish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2022-yil 22-iyun sanasiga belgilandi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan masalalar bo‘yicha ma'lumot va materiallar bilan “Samarqanddonmahsulotlari” AJda ushbu xabar e'lon qilingan kundan boshlab, yig‘ilish o‘tkaziladigan kunga qadar soat 8:00 dan 10:00 gacha tanishish mumkin.

**Murojaat uchun telefon: +99866-239-55-04.**

**Jamiyatning rasmiy veb-sayti: www.samdon.uz**

Elektron pochta manzili: samarqanddon@umail.uz

Hurmatli aksiyadorlar! Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi axborot va boshqa ma'lumotlarni jamiyat aksiyadorlariga sifatli va tezkor ravishda yetkazilishini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq elektron pochta orqali amalga oshirilishini inobatga olib, sizga elektron pochta manzilingizni (Email.) taqdim etishingiz lozimligini ma'lum qilamiz.

**JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.**




# Mohir jurnalist, o'tkir hajvchi haqida kitob

**Pushkin nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazida “Qalam” nashriyoti tomonidan chop etilgan, mohir jurnalist, shoir va yozuvchi Baxtiyor Jumayev ijod va faoliyatiga bag‘ishlangan “Dardxanda” nomli yangi kitob taqdimotiga bag‘ishlangan adabiy uchrashuv bo‘lib o‘tdi.**

Unda samarqandlik shoir, yozuvchi, jurnalist, adabiyotshunos olimlar, SamDU talabalari, Samarqand tumanidagi 37- va 41-umumta’lim maktablari o‘qituvchi va o‘quvchilari ishtirok etdi.

Tadbirda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist F.Toshev, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo‘limi raisi A.Haydarov, "Ovozi Samarqand" gazetasi bosh muharriri B.Rahmonov, viloyat tojik va tojikzabon milliy-madaniy markazi rahbari A.Mahmudov va boshqalar adabiyotning inson kamolotida tutgan o‘rni, Baxtiyor Jumayev ijodining o‘ziga xos jihatlari va ijodkor yangi kitobi haqida to‘xtaldi.

– Baxtiyor Jumayev ijodi bilan o‘ttiz yildan buyon tanishman, - dedi adabiyotshunos olim Asliddin Qamarzoda. – U so‘zning betakror qudratini yurakdan his qila oladi, o‘z ustida tinimsiz ishlaydi, natijada har bir hikoya va she’ri pishiq-puxtaligi, tasvirning tiniqligi va yuksak badiiy saviyasi bilan o‘quvchi qalbida muhrlanib qoladi. Ayniqsa, hajviyalari o‘quvchini o‘ziga rom qiladi.

Kitob taqdimoti Baxtiyor Jumayevning 70 yoshli yubiley tadbiriga ulanib ketdi. Unda ijodkorning hayot, ona, yoshlik, mehr-muhabbatni madh etuvchi asarlaridan namunalar o‘qildi, o‘quvchilar tomonidan hajviyalari asosida sahna ko‘rinishlari namoyish etildi.

**Husan ELTOYEV.**

***

**Shahzod KENJAYEV olgan surat.**

# Ilm osmonida porlagan inson bu...

**Samarqand farzandi, jahon tibbiyot olamida olamshumul tadqiqotlari bilan tanilgan, akademik, tibbiyot fanlari doktori Rahim Haitov hayot bo‘lganida bugun 80 yoshni qarshilardi.**

Rahim Haitov 1944-yilda Samarqand shahrida olimlar M.Haitov va Z.Rasuliy oilasida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugatgach, Samarqand tibbiyot institutiga o‘qishga kirdi. Tahsilning uchinchi kursidayoq o‘z ilmiy faoliyatini boshladi. 1968-yilda nomzodlik, 1972-yilda 28 yoshida doktorlikni himoya qildi.

U 24 yoshida Moskva biofizika institutining akademik R.Petrov laboratoriyasiga ishga kirdi. 1974-yilda esa mazkur institutning immunologiya bo‘limida ilmiy laboratoriya tashkil etib, unga rahbarlik qildi.

R.Haitov sobiq ittifoqning birinchi immunologiya institutiga asos solganlardan biri bo‘ldi. 1983-yilda shu institut direktori o‘rinbosari etib tayinlandi. 1988-yildan 2014-yilgacha immunologiya institutining direktori bo‘ldi.

1980-yilda unga professorlik unvoni berildi, 1991-yilda Rossiya tibbiyot fanlari akademiyasining muxbir a’zosi, 1997-yilda haqiqiy a’zosi, 2006-yilda esa Rossiya Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi etib saylandi. Rahim Haitov immunologiya, immunogenetika hamda biotexnologiyaning fundamental va amaliy jihatlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. U mingdan ortiq ilmiy ishlarga mualliflik qildi. Jumladan, 20 ta monografiya, 10 ta adabiyot va immunologiya bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, 27 ta patent va mualliflik guvohnomalari, uchta xalqaro patent sohibi bo‘ldi.

U yaratgan “Grippol” vaksinasi bilan millionlab odamlar muvaffaqiyatli emlandi. Birinchi marta OIV/OITSga qarshi vaksina ishlab



chiqilib, klinik sinovlardan o‘tdi.

1988-yildan boshlab “Immunologiya” va "Immunitet tizimining fiziologiyasi va patologiyasi", “Immunofarmakogenogenika” jurnallariga muharrirlik qildi. 1995-yildan Rossiya allergologlari va immunologlari assotsiatsiyasiga rahbarlik qildi.

R.Haitov ilmiy maktabida 69 ta nomzodlik, 38 tasi fan doktorligi dissertatsiyasi himoya qilindi. Rossiya bosh allergolog-immunologi sifatida allergologik va immunologik xizmatni takomillashtirishga katta e’tibor berdi. Uning tashabbusi bilan turli mintaqalarda aholining immunitet holatini baholash, OITSning oldini olish va unga qarshi kurash-ish uchun laboratoriya va klinik immunologiya markazlari tashkil etildi. Akademik R.Haitov tibbiyot sohasidagi salmoqli xizmatlari uchun o‘nga yaqin davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

U turmush o‘rtog‘i Karima Haitova bilan bir o‘g‘il, ikki qizni tarbiyalab, voyaga yetkazdi.

Domla Rahim Haitov beshta tilda ravon gaplashib, shu tillarda ilmiy ma’ruzalar qilardi. Bir safar domla Samarqand davlat tibbiyot institutiga kelib, ma’ruza o‘qiganda hamma lol qolgandi. O‘sha paytlarda institut rektori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor O‘.Vahobova ham shogirdining yutuqlaridan quvonib, ko‘ziga yosh olgan edi.

O‘zbek tibbiyotidan chiqib, jahonda taniqli olim darajasiga chiqqan yurtdoshlarimiz juda kam. Bugungi kunda uning ishini o‘g‘li Musa Rahimovich davom ettirmoqda.

Rahim Haitov 2022-yilning 11-martida Moskva shahrida vafot etdi. Uning ruhi shod, oxirati obod bo‘lsin.

**Zayniddin NORMAN,**
**O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi.**

# Bo‘lajak restavratorlar Samarqanddagi tarixiy obidalarga sayohat qildi



**Respublika Bosh prokuraturasi hamda Samarqand viloyat madaniy meros boshqarmasi hamkorligida Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi yo‘nalishi talabalarining tarixiy obidalarga sayohati uyushtirildi.**

Talabalar tarixiy obidalar bilan tanishish barobarida ularning boy tarixi, qurilish ishlari, qurilish materiallari, asrdan-asrga qanday saqlanib kelayotgani haqida qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘lishdi.

- Universitetimizda arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi yo‘nalishi bo‘lib, unda 45 nafar talaba tahsil olyapti, - dedi arxitektura nazariyasi va tarixi kafedrasi dotsenti, arxitektura fanlari nomzodi Dilorom Salohiddinova. – Bunday sayohatlar talabalarning bilimi va ko‘nikmasini yanada oshiradi.

**Xurshida ERNAZAROVA.**

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## Muso GULYAMOV



Beshafqat o‘lim samimiy do‘st, ajoyib inson Muso Gulyamovni oramizdan olib ketdi.

M.Gulyamov 1952-yilning 1-fevralida Samarqand shahrida dunyoga keldi. Maktabni bitirgach, qurilish materiallari kombinatiga chilangar bo‘lib ishga kirdi. 1971-1973-yillarda armiyada xizmat burchini bajardi. Armiyadan qaytgach, Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetiga o‘qishga kirdi.

U o‘qish bilan birga o‘zining sevimli kasbini ham davom ettirdi. Turli korxonalarda chilangar usta bo‘lib ishladi.

1984-1995-yillarda shahardagi 18-avtobazada harakat xavfsizligi va texnika xavfsizligi muhandisi, bosh muhandis vazifalarida mehnat qildi.

1985-yilda Buxoro avtomobil va yo‘llar texnikumining avtomobillarni ekspluatatsiya qilish texnigi mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishni tugatdi. So‘ngra Samarqand shahridagi avtokorxonada avtomobillarni ekspluatatsiya qilish bo‘limi boshlig‘i, “Akmal trans servis” MChJ direktori o‘rinbosari bo‘lib ishladi.

2010-2016-yillar shahardagi “Katta ariq” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi vazifasida faoliyat yuritdi. Mahalla ahlining muammolariga yechim topib, aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga hissa qo‘shdi.

M.Gulyamov 2016-2021- yillarda O‘zbekiston Pensionerlar uyushmasi viloyat kengashi raisining birinchi o‘rinbosari, 2021-yildan O‘zbekiston pensionerlar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari lavozimida mehnat qilib kelayotgandi.

Muso Gulyamov qaysi vazifada ishlamasin, faqat el-yurt rivoji yo‘lida halol mehnat qildi. Odamlarning og‘irini yengil qilib, ularga yelkadosh bo‘lishga urindi. Inson sifatida o‘zidan yaxshi nom qoldirdi. Ilohim, oxirati obod bo‘lsin!

**O‘ZBEKISTON PENSIONERLAR UYUSHMASI HAMDA UYUSHMANING VILOYAT KENGASHI JAMOALARI.**

## “JOMBOY DON MAHSULOTLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI

# AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

**“Jomboy don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig‘ilishi 2023-yil 31-mart kuni (haftaning juma kuni) soat 9:00 da Samarqand viloyati Jomboy tumani, Jomboy shahri, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 1-uy manzilida joylashgan “Jomboy don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati ma'muriy binosi majlislar zalida o‘tkazilishini ma'lum qiladi.**

Jamiyat aksiyadorlarining 2022-yil yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibida quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

**UMUMIY YIG‘ILISH KUN TARTIBI:**

*1. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining ishchi prezidiumi va sanoq komissiyasini saylash;*

*2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining reglamenti va kun tartibini tasdiqlash;*

*3. Jamiyat kuzatuv kengashining 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha hisobotini tasdiqlash;*

*4. Jamiyatning 2022-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti va 2022-yilning asosiy natijalari hamda 2023-yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar to‘g‘risida boshqaruv raisining hisobotini tasdiqlash;*

*5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi PQ-4426-sonli qarori talablariga muvofiq 2022-moliyaviy yil yakuni bo‘yicha boshqaruv raisining ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo‘yicha direktorining hisobotini tasdiqlash;*

*6. Jamiyatning 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti hamda foyda va zararlarini tasdiqlash;*

*7. Jamiyat taftish komissiyasining 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha tekshirish hisoboti va xulosasini tasdiqlash;*

*8. Jamiyatning 2022-moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha tashqi auditorlik tashkiloti “ZAMIN OIL-AUDIT” MChJning xulosasi (MHXS, MHMS) hamda 2022-yil uchun SMK, SYK va ularning bajarilishi foizlarining hisoblangan miqdorini tekshirish natijalari yuzasidan jamiyat tashqi auditorining xulosasini eshitish va tasdiqlash;*

*9. 2022-yil yakuni bo‘yicha jamiyat foydasi taqsimlanishi, ustav fondidagi aksiyalarga hisoblanadigan dividend miqdori belgilanishi va dividend to‘lash muddatini tasdiqlash;*

*10. Jamiyatning 2023-yilgi faoliyati uchun kuzatuv kengashi a'zolarini qayta saylash va moddiy rag‘batlantirish hamda “Kuzatuv kengashi, ijro etuvchi organi, taftish komissiyasi a'zolari va ishchi guruhi a'zolarini moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi nizomga o‘zgartirish kiritish;*

*11. Jamiyatning 2023-yilgi faoliyati uchun taftish komissiyasi a'zolarini qayta saylash va moddiy rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish;*

*12. Jamiyatning 2023-yilgi faoliyati uchun ijroiya organi rahbari va a'zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi muddatini uzaytirish;*

*13. Jamiyatda 2023-yil yakuni bo‘yicha auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditor xizmatini ko‘rsatuvchi tashkilotlar taklifini ko‘rib chiqish hamda ularga to‘lanadigan xizmat haqi miqdorini belgilash;*

*14. Depozitariy “Samarqand vaqt” MChJ tomonidan 2022-yilda korporativ boshqaruv tizimini baholash xulosasini eshitish va tasdiqlash;*

*15. Jamiyatda xaridlar jarayonining shaffofligi, asosliligi, shu jumladan, mahalliy mahsulotlarning sifat va narx bo‘yicha belgilangan parametrlarga muvofiqligini hisobga olgan holda import xaridlarini, shuningdek, valyuta resurslaridan samarali foydalanilishi to‘g‘risida tashqi audit xulosasini tasdiqlash.*

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning ro‘yxatini tuzish hamda umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi haqida xabarnoma olish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2023-yil 3-mart kuniga va yillik umumiy yig‘ilishda qatnashish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2023-yil 27-mart kuniga belgilansin.

Aksiyadorlarni ro‘yxatga olish 2023-yil 31-mart kuni soat 8:00 dan 9:00 ga qadar davom etadi.

Yig‘ilishga aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari va ularning vakillari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnomalar bilan kelishlari so‘raladi.

**Murojaat uchun telefon: +99866-240-71-71.**

**Jamiyatning elektron pochta manzili: jomboydon_aj@mail.ru**

**Hurmatli aksiyadorlar!** Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi axborot va boshqa ma'lumotlarni jamiyat aksiyadorlariga sifatli va tezkor ravishda yetkazilishini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq elektron pochta orqali amalga oshirilishini inobatga olib, sizga elektron pochta manzilingizni (Email.) taqdim etishingiz lozimligini ma'lum qilamiz.

**JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.**

### DA’VOLAR BO‘LSA...

Urgut tumanidagi “JAHON-MED FARM” mas’uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 307898641) o‘z ustav fondini 200 000 000 (ikki yuz million) so‘mdan 107 700 000 (bir yuz etti million etti yuz ming) so‘mga kamaytirmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da’volar gazetada e’lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Urgut shahri “Bog‘ishamol” MFY, Qoratepa ko‘chasi.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasida marhum Xaydarov Asam Sayidovichga (2022-yil 2-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Aslidinova Zamiraga (2019-yil 18-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo‘l ko‘chasi, 9-“B” uy.**

* * *

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasida marhum Turayev Xabibqul Qaroyevichga (2013-yil 15-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Mukumov Ma’ruf Xazratovichga (2022-yil 20-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 18-uy, 51-xona.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Xalmuratova Danaxolga (2015-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko‘chasi, 35-uy, 3-xona.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Aleksanyan Anjela Artyomovnaga (2022-yil 20-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko‘chasi, 12-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xamrayev Djaxangir Djuraqulovichga (2011-yil 24-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Rasulova Gul’chexra Sharopovnaga (1999-yil 8-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Rasulov Xolkarim Xalimovichga (2005-yil 4-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.**

* * *

### BEKOR QILINADI

“EUROASIA INSURANCE” AJ QK Bog‘ishamol filialiga qarashli EI-L seriyali 414746, 498753, 521773, 521774, 521775, 521787, 521813, 521814, 521815, 521816, 521829, 521838, 521979, 521982, 522104, 522202, 522245, 522247, 523115, 523896, 546136, 546731, 546738, 546739, 546740, 546741, 546742, 546743, 546744, 546745, 546746, 546748, 546749, 546750, 559036, 559050, 559187, 569504, 569507 va EIT seriyali 9965, 9966, 12193, 13554, 13640, 13752, 17461, 14563, 14604, 14605, 14612, 14615, 14616, 14617, 14621, 14622, 72898, 72899, 72900, 73476, 73817, 77183, 81398, 81399, 81400, 90203, 90504 raqamli sug‘urta polislari yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

**Oilaviy ajrimlar – jamiyat fojiasi. Ularning har biri alohida xususiyatga ega, biri ikkinchisiga o‘xshamaydi. Lekin aksariyat hollarda ajrimga er yoki xotinning xatti-harakati sabab bo‘ladi. Sudlarda ko‘rilayotgan ajrim bilan bog‘liq ishlarning aksariyatida xiyonat sabab qilib ko‘rsatiladi va er qat’iy ajrashish fikrida turib oladi. Musulmonmiz, rashk bor! Xiyonat sodir bo‘lganda ortga yo‘l yo‘q!**

# PANADAGI G‘ALAMIS

Xuddi shunday hollarda panada turgan uchinchi kimsa, voqeaning asl sababchisi, chiroyli oilaning baxtiga chang solgan, ayolni yo‘ldan urgan begona erkak jazodan chetda qoladi. Hech narsa ko‘rmaganday davralarda nechta ayol bilan “yurishini”, kim bilan qanday maishat qilayotganini aytib, ayolning eri va yaqinlari ustidan kulib yuraveradi.

Bu qanday sodir bo‘ladi? Ma’lumki, begona erkak biror ayolni ko‘ngliga yo‘l topmoqchi bo‘lsa, avvaliga oddiy suhbatlar bilan gaplashib yuradi. Keyin ayolning muammolarini muhokama qilib, hamdardlik bildiradi, bu muammolarni hal etish choralarini izlagan bo‘ladi. Hamma ayolda bo‘lmasa ham ayrim sodda ayollarda bunday erkakka nisbatan xayrixohlik paydo bo‘ladi. Bundan ustalik bilan foydalangan erkak asta-sekin ko‘ngil so‘rash, chiroyini maqtash, hol so‘rab sms yozish, ko‘proq suhbatlashishga harakat qilish orqali ayolning ko‘ngliga kirib boradi. Keyin ayolning eriga, erining oilasiga nisbatan hurmatini, ishonchini sustlashtirishga harakat qiladi.

Agar ayol hushyor bo‘lsa shu joyda munosabatga darrov chek qo‘yadi. Agar sodda bo‘lsa, borgan sari dardlarini eriga emas, bu erkakka ayta boshlaydi. Ana shunda ayol aslida yovuz niyatli bo‘lgan g‘alamisning tuzog‘iga tushadi. Ablah erkak o‘zining qabih, razil niyatiga yetadi. Bir lahzalik shahvoniy nafsini deb, bir oilani bir umrga xonavayron qiladi.

Shunda dunyo larzaga keladi! Ayolning hayoti chilparchin bo‘ladi! Endi uni tiklab bo‘lmaydi. Keyin ayol erkakning izmiga tushib qoladi. Erkak esa endi sir oshkor bo‘lishini aytib ayolni qo‘rqitadi va zug‘um qila boshlaydi, hohlagancha xo‘rlaydi.

Shu bilan bitta oilaga darz ketadi, er-xotinning umri barbod bo‘ladi. Xo‘p, ayol bir g‘alamisning hiylasiga uchib umrini kuydirdi, lekin kuyov yigitning aybi nimada? U ham hayotga bir marta keladi, chiroyli oila qurib yashayapti, baxtli bo‘lish, farzandlar ulg‘aytirish, ularning rohatini ko‘rish kabi bir olam orzu-niyatlari bor edi. Aybi baxtli oilasiga ilon kirib kelayotganini sezmaganimi? Nega u endi baxtsiz bo‘lishi kerak?

Eng alamlisi begunoh, hayotda maza qilib yashashga intilgan bolalar yetim qoladi. Endi ularning hayotini hech narsa tuzatolmaydi. Ularning bir umrlik ko‘zyoshi va qarg‘ishiga kim javob beradi? Albatta razil, pastkash, vijdonsiz, halol va haromni farqiga bormaydigan kimsalar. Hayvonlar o‘z harakatining oqibatini o‘ylamaydi. Demak o‘z harakatining oqibatini o‘ylamaydigan, birovning qiziga, xotiniga, keliniga ko‘z olaytirgan nomussiz, oriyatsiz, uyatsiz, diyonatsiz insonlarning ham hayvondan farqi yo‘q.

2022-yilda respublika bo‘yicha nikohdan ajratishga oid 62331 ta ish sudlarda ko‘rilgan. Ularning 33420 tasi bo‘yicha da’vo talablari qanoatlantirilgan, ya’ni nikoh bekor qilingan. Mazkur oilalarning salmoqli qismi buzilishiga xiyonat sabab. Shu oilalarda nechta bola tirik yetim qolgan ekan? O‘rtacha ikkitadan deganimizda ham har yili 70 ming bola yetim bo‘lmoqda. Nega har xil hisobotlar yuritiladiyu yetim qolgan bolalar hisoboti yuritilmaydi? Jamiyatning eng katta fojeasi shu-ku aslida?



Xo‘sh, shu ajrimlarning hammasiga ayollar sababchimi? Yo‘q! Birovning baxtiga chang solgan inson qiyofasidagi jirkanch kimsalar, panadagi g‘alamislar ham sababchi!

Birovning qiziga, xotiniga, keliniga ko‘z olaytirgan, oilasi buzilishiga sababchi bo‘lgan, baxtiga tajovuz qilgan, begunoh bolalarni yetim qilgan razillarga nisbatan qonunchilikda o‘ta qat’iy jazo choralari belgilanishi kerak (Qaytar dunyo ekanligi, ularning ham qizlari, singillari, jiyanlari shu ko‘yga tushishi haqiqatga yaqinligi alohida mavzu). Chunki ularning iflosligi jamiyatga juda katta zarar keltiryapti.

Haqoratli so‘zlar ishlatganim uchun uzr. Chunki bunday kimsalarni boshqacha atab bo‘lmaydi. Hayotda bunaqa ayanchli holatlarni ko‘raverib, ko‘p oilaviy mojarolarga aralashaverib, juda noxush holatlarga tushyapman. Ayniqsa, telefon, internet ommalashgan keyingi yillarda bu holat keskin ko‘paygani hammani hushyor torttirishi kerak.

Xulosa o‘zingizdan! Gap egasini topadi!

**Rahmat MURODILLAYEV,**
**mehnat faxriysi.**

# “NECHA MILLIONLIK GRANTLAR YUTDINGIZ, BOYIB KETGANDIRSIZ?”

**Maqolamni bugun nodavlat notijorat tashkilotlariga beqiyos e’tibor qaratilyapti, uning natijasida falon ishlar amalga oshirilmoqda, degan fikrlar bilan to‘yintirmoqchi emasman. Nodavlat notijorat tashkilotlari vakillariga hech qachon oson bo‘lmagan, bu tizimda kishini faqat fidoyilik saqlab qolishi mumkin. Jamiyatdagi u yoki bu muammoga befarq bo‘lmagan kishi atrofdagi holatlarga qarshi kurashishi, uning yechimini topish uchun ma’lum miqdorda mablag‘ bilan ta’minlanishi kerak.**

Aslida, ushbu tashkilotlar har bir rivojlangan davlatning qanotidir, ya’ni davlat tashkiloti qo‘li yetmaydigan muammolarga ular yechim topib bergan. Afsuski, aholida bu tashkilotlar haqida yetarlicha tushunchaning mavjud emasligi, hatto ba’zi davlat tashkilotlari ularni ortiqcha ”boshog‘rig‘i” deb o‘ylashi afsuslanarlidir.

To‘g‘risi, nafaqaga chiqqanimdan so‘ng, ya’ni 2014-yilda tumanimizda tugatilib ketgan xalqaro “Oltin meros” jag‘armasi bo‘limini qaytadan ochib, adabiyot, san’at, milliy urf-odatlarimiz hamda tarixiy yodgorliklarimizni asrab-avaylash, rivojlantirish sohasidagi davlat tashkilotlarida ishlab orttirgan tajribalarimni, qonunchilik va islohotlarni hayotga tatbiq etish, jamoat tashkilotlari va jamoatchilik nazorati bo‘yicha amalga oshirgan targ‘ibot ishlarimni nodavlat tashkilot rahbari sifatida davom ettirmoqdaman.

2021-yil noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida respublikamizning barcha viloyatlaridan saralab olingan 50 nafar nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlarining birinchi bor tashkil etilgan malaka oshirish kursida o‘qidim.

O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi (O‘zNNTMA) hamda O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi e’lon qilgan “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini axborot, maslahat va uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash” mavzusidagi grant tanlovi yo‘nalishi tashkilotimiz faoliyatiga juda zarur edi. Maqsadimiz amalga oshdi, “Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida faoliyat ko‘rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari uchun axborot, o‘quv-uslubiy markazining faoliyatini boshlash. “Oqdaryo NNTlar uyi”ni tashkil etish” nomli (70 million so‘mlik) loyihamiz tanlovda g‘olib bo‘lib, grant sertifikatini qo‘lga kiritdik.



2021-yil 16-dekabrda O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi bilan shartnoma tuzdik, shartnomaga asosan, 2022-yil davomida o‘quv markazini tashkil etish, loyiha yozish, yangi nodavlat tashkiloti tuzishning huquqiy asoslarini o‘rgatish va boshqa barcha tegishli savollarga javob berdik, tajriba almashdik va katta amaliy natijalarga erishdik.

Oqdaryo tumanida faoliyat ko‘rsatayotgan 26 ta nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari uchun axborot, o‘quv-uslubiy markazi faoliyatini yo‘lga qo‘ydik. Tuman hokimligi tomonidan loyihamizni amalga oshirish uchun barcha qulayliklar yaratildi, madaniyat uyining ikkinchi qavatidan katta va shinam xona ajratildi. O‘quv markazimizga NNT rahbarlari va ko‘ngilli (volontyor)larimizdan 33 nafari faol ishtirok etdi. Markazimiz a’zolari tomonidan 10 ta loyiha yozildi va ko‘plab loyihalarimiz hozirgi kunda ham tayyorlanmoqda. Tumanimiz aholisi hayotining ijtimoiy barqarorlashuvi uchun yil davomida g‘olib deb topilgan to‘rtta loyihamiz amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Avvalgi yillarda tumanimizda birgina “Oltin meros” jamoasi loyiha yozib, mablag‘ topib, o‘z faoliyatini rivojlantirgan bo‘lsa, ushbu loyihamiz ish boshlagach, nodavlat sektorini o‘rganishga qiziquvchilar va ko‘ngillilar soni ko‘paydi. O‘quv mashg‘ulotlarda nodavlat tashkilotlarining fuqarolik jamiyatidagi o‘rni, huquqiy-tashkiliy asoslari, qonuniy kafolatlari hamda moddiy resurslari, grant tanlovlarida ishtirok etish, o‘zaro tajriba almashish mavzusida turli tadbirlar, seminar-treninglar o‘tkazildi. Ilg‘or NNTlar faoliyati o‘rganildi. Natijada aniq ko‘rsatkich va yutuqlarga erishdik. Loyihamizning budjet xarajatlari maqsadli amalga oshirildi, o‘quv markazimiz faoliyatiga zarur bo‘lgan barcha jihozlarni sotib oldik. Zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lgan “Oqdaryo NNTlari axborot o‘quv-uslubiy markazi” o‘z faoliyatini davom ettirmoqda.

NNT rahbarlari va ko‘ngilli tinglovchilar tomonidan 11 ta loyiha tayyorlandi va viloyat Jamoat fondiga 6 ta, Oliy Majlis Jamoat fondiga 4 ta loyiha taqdim etildi. O‘quv kursimiz a’zolaridan Oliy Majlis granti g‘olibi Norbuvi Nurmatova (Mustaqillik mahallasi - 70 000 000 so‘m), Madina Bobojonova (Primkent mahalla fuqarolar yig‘ini - 30 000 000 so‘m), Fayoz Rabbonayev (“O‘zbekiston” mahallasi - 50 000 000 so‘m) muallifligidagi loyihalarni amalga oshirish boshlandi va 16 ta yangi ishchi o‘rni yaratildi.

2022-yilda o‘quv markazimizning faol a’zosi Madina Bobojonova tumanimizda respublika Nogironlar jamiyati tuman bo‘limini ochdi. Yana bir yangi NNT – O‘zbekiston “Tadbirkor ayol” milliy assotsiatsiyasining tuman bo‘limini tashkil etish maqsadida hujjatlar tayyorlanmoqda.

Loyihamizni amalga oshirish muddati tugadi, ammo faoliyati davom etadi, tumanimizdagi barcha nodavlat tashkilotlariga, ko‘ngillilarga maslahat markazi sifatida xizmat qiladi. Maqolam so‘ngida har doim ko‘pchilik qiziqadigan yana bir savolga javob bermoqchiman. “Necha millionlik grantlar yutdingiz, boyib ketgandirsiz?”, deydi ko‘pchilik.

- Loyihangizdan qancha maosh olasiz?
- 5 million so‘m.
- Zo‘r-ku!
- Bir yil mobaynida...
- Yo‘g‘-e, oyiga qanchadan tushadi?
- To‘rt yuz mingdan ziyodroq.
- E-e-y, yo‘g‘-e, juda kam-ku?!

Bu faktni eshitib, aniq bilamanki, o‘quvchimizning ham kayfiyati tushib ketdi. Ana shuning uchun ham “Nodavlat tashkilotlarida fidoyilar ishlaydi”, degan naql yuradi oramizda. Ammo “Shaxsiy manfaatdorlik past bo‘lgan joyda umummanfaat ham rivojlanmaydi”, degan qoidalar ham bor.

**Oygul MAMATOVA,**
**“Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishoni sohibi.**



# QADRSIZ QADRDONLAR fojiasi

**Dramatik asarlarning sahnaga ko‘chirilgan nusxasidan ko‘ra adabiy matn teranroq bo‘lsa, g‘oyaviy mazmun ham shunchalik aniqroq, bo‘rtibroq ko‘rinadi. Undagi tasvir ifodalarining serqatlam bo‘lishi, badiiy tasviriy unsurlarning jozibadorligi, janr o‘ziga xosliklarining ta’sirchanligi esa dramaturgning ijodiy niyatini yuzaga chiqaruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.**

Ilhom Hasanovning “Bir kam dunyo” tragikomediyasi sho‘rolar mustamlakachilik davrining so‘nggi yillarida yozilgan. Voqealar ham XX-asrning 80-yillarida bo‘lib o‘tadi.

Komediya Ulug‘ ayaning urushdan qaytmagan turmush o‘rtog‘i Halim ota ruhi bilan suhbatidan boshlanadi. Halim ota urushda o‘lmaganini, doim Ulug‘ aya bilan hamdam, hamqadam yashayotganini eslatadi.

Mushtipar ayolni xotiralar qiynog‘iga solgisi kelmasdan, sog‘inch ko‘z yoshlariga bardosh berolmasdan qiynalgan ota o‘zini xotirlamaslikka chaqiradi. Halim ota farzandlarining iblislashib, o‘z nafsiga qul bo‘lib ketganligini bilib turadi. Bu iddolarni “Ilgarilari bolalarimni ko‘rib turardim, endilikda qancha urinsam ham ko‘rolmayapman”, degan iqrorlari tasdiqlaydi. O‘tganlar ruhi biz bilan yonma-yon yashashlari uchun biz ularni xotirlab turishimiz yetarli bo‘ladi. Yaqinlarimizning, ayniqsa, ota-onalarimizning bizdan uzoqlashishi – shaytonning bizga yaqinlashishini tezlashtiradi. Ulug‘ ayaning farzandlari o‘z otasiga ba’zan ko‘rinadi, o‘shandayam qiyofasiz – “shakl-shamoyilsiz ko‘lanka” bo‘lib ko‘rinadi. Yaqinlari orasida o‘z o‘rni, qadri, insoniylik xislatlari yo‘q odamlarda qiyofa, odamiylik, savqi tabiiylik bo‘lmasligini muallif yaxshi anglaydi. Ulug‘ aya onalik burchini unutishni xohlamaydi. U farzandlari tarafiga o‘tadi. Halim otaning “Shunday-ku-ya, ammo ular meni – o‘liknigina emas, sen – tirikni ham anchadan buyon eslamay qo‘ygan ko‘rinishadi”, degan e’tirozi onaizorni yana iztiroblar girdobiga g‘arq qiladi. Hammasini tan olib tursa-da, o‘zining noqobil farzandlari ustidan otaga arz qilishni nojoiz deb biladi. Chunki bu farzandlar tarbiyasi bilan o‘zi shug‘ullangan. Ularni birovdan kam bo‘lmasin, o‘ksimasin, otasizlik og‘ir botmasin deb o‘lib tirilgan. Oq yuvib, oq taragan, o‘qitgan, bolalarga qattiq gapirishdan tiyilgan. Piravardida, farzandlar hayot sinovlarida, turmush mashaqqatlarida toblanmagan, yashab qolish ilinjida o‘lib-tirilmagan, shu bois ko‘zlari yumuq, soyada o‘sgan. Qo‘llariga jaraq-jaraq pul tushganda esa boylik qiyofasidagi iblis ulardagi noinsoniy istaklarning rivojiga keng yo‘l ochib bergach, hammadan o‘zlarini aqlli sanagan imonsizlar nafaqat atrofidagi odamlarni, balki o‘z tuqqan onasini ham mensimay qo‘yadi.

Mansur Hamidaning – maqtovga sazovor qizning o‘g‘li. Mansur xarakteridagi rostgo‘ylik, gap kelganda hech kimni ayamaslik, qaysarlik xislatlarini sahna asarining tabiatidan izlamoq maqsadga muvofiqdir.

I.Hasanov o‘z tragikomediyasidagi ziddiyatlar, xarakterlar qarama-qarshiligi, ruhiy xavotirni yuzaga keltirishda kinoyalar, kesatiqlar orqali kulgu uyg‘otishni Mansur obraziga yukladi. Uning yosh bo‘lishiga qaramasdan katta yoshlilar bilan gap talashishlari tomoshabinda kulgu uyg‘otadi.

Mansur o‘z oilasidagi urush-janjallar, xiyonatlar kundalik odat tusiga kirib qolgan nosog‘lom muhitda “betgachopar, yuzsiz, qaysar” bo‘lib tarbiyalangan bo‘lsa, buvisi suhbatlaridan to‘g‘riso‘z, oq-qoraning farqiga boradigan, tog‘alari mehrsizligi, beoqibatligidan esa ularga nisbatan nafrat tuyg‘usini hosil qilib boradi. Mansur drama syujetini harakatga keltirib turadi. Muallif mazkur obraz orqali uning tog‘alari va o‘z onasining qilmishlarini ekspozitsiya tarzida tomoshabinga eslatadi. Mansurdagi qaysarlik, rostgo‘ylik Hamida, Hikmat va Hakim xarakteridagi munofiqlik, ikkiyuzlamachilik bilan to‘qnash kelganda fikr va ehtiroslar junbushga keladi.

Ulug‘ aya farzandlarining nafsi aqlidan ustunlik qildi. Ular o‘z nafslariga qul bo‘lishdi. Shundog‘am insoniy hayot tajribasiga ega bo‘lmagan Hakim, Hikmat, Hamidaning (ismlarda achchiq kinoya mavjud) nafsi hakalak otishiga nopok jamiyat tartibotlari ham ozmi-ko‘pmi xizmat qildi. Bemor onaning holidan xabardor bo‘lib turish uchun ularda farzandlik burchi, insoniy or-nomus, tug‘ishganlar mehri yetishmaydi. Shu bois Mansur ularni “buvim o‘ldi” deb chaqiradi. Onaning vafoti farzandlar uchun aza emas, maza. “Kalxat”lar o‘lja talashadi. Onadan qolgan xazinaga tezroq egalik qilish kerak. Shoshilinch “tashrif”ning sababi – shu...

Asarda sho‘rolar tuzumining barcha kirdikorlari qahramonlar xotiralarida, savol-javoblarida, xarakterlar to‘qnashuvlarida namoyon bo‘ladi.

Hamidaning xarakteridagi kemtiklik uning do‘konda ishlashi, odamiyligini pul, mol-dunyoga alishib yuborganligi, o‘z umr yo‘ldoshini pora olishga undashi, ish o‘rni uchun eriga xiyonat qilishdan ham qaytmasligida ko‘rinadi. Uning o‘z bolasini haqoratlashi, erini obro‘sizlantirishi murg‘ak bola qalbida onaga nisbatan nafrat uyg‘otadi.

Hikmat bemor onasining boshida o‘tirib, unga sog‘lik tilash o‘rniga boyliklarini qayerga yashirgan ekan, deb bosh qotiradi. Hamida esa o‘limdan qo‘rqadi. Chunki yiqqan, yig‘moqchi bo‘lgan mol-dunyosini ko‘z oldiga keltirsa, “muz bo‘lib” ketadi. Uning o‘z falsafasi bor. “Bu qanday adolatsizlikki, odam bolasi yo‘qlikdan yaralib, aqlini tanib-tanimas o‘zini o‘tga, cho‘qqa ursa-yu, oxir-oqibat bir hovuch tuproqqa aylansa?”

Bir oz kechikib kelgan katta – Hakim aka o‘z jiyanini, har doim Ulug‘ aya atrofida girdikapalak bo‘lib yuradigan Mansurni tanimaydi.

Hakim: Bu kimning norasidasi, qaydan kelib qoldi? Hay, jiblajibon... E-e, bu jiyan-ku, jiyan beri kel, ko‘rishmaysanmi, isming nima edi, a?

Mansur: Ko‘rishib zarur keptimi, hatto kimligimni bilmaydilar-u...

Hakim: Ha-a, endi katta odam hammani tanishi shart emas, uni tanishsa bo‘lgani.

Tomoshabinda kulgi uyg‘otadigan bu xildagi “qadrdonlar” suhbati dramatizmni yuzaga chiqarmoqda. Davr fojiasi – amaldorni barcha tanishi kerak, amaldor, mansabparastning fuqaroni ham, qavmi-qarindoshlarini ham tanishi shart emas.

Asarda Ulug‘ aya va Mansurdan boshqa insoniy xislatlarga ega obrazning o‘zi yo‘q. Tragikomediya tabiati ham jamiyat uchun zarur bo‘lgan ziyoli, ilg‘or kishilarni emas, balki bir qadar tuban, tanqid va kulgiga sabab bo‘ladigan voqealarni tanlab oladi.

Ota qadrdonlardan biri Namoz ota ham o‘z gunohlari, shayton qilmagan tubanliklari bilan dong taratgan. U urush yillari, ocharchilikda Ulug‘ ayaning erta-indin tug‘aman deb turgan sigirini olib ketib, sotadi. Bu holat bir uy bolaning qon qaqshab qolishiga sabab bo‘ladi. Ya’ni, go‘daklar qarg‘ishiga mubtalo bo‘lgan badbaxt. Endi sharti ketib, parti qolganda bu ishlarining oqibatini bir “musulmon” sifatida ich-ichidan his qilmoqda. Biroq dabdurustdan Ulug‘ ayaning oldiga kirishdan, unga ro‘bara bo‘lishdan qo‘rqadi. Bu qo‘rquv dissertatsiya yoqlash arafasida turgan Hikmatga qo‘l keladi. Ulug‘ aya oldiga tavba qilish niyatida kelayotgan “o‘g‘ri” “qaroqchi”ga yo‘liqadi. Qilgan gunohlari evaziga bir emas, uch sigirning pulini berib bo‘lsa-da, kechirishini, rozi-rizochiligini olishni umid qilib kelgan Namoz ota pulni Hikmatga berib, xursand bo‘lib uyiga qaytadi. Hikmat uning nomidan onaizoridan otani afv etishlarini iltimos qilishini aytadi.

Cho‘ntagi pulga to‘lgan Hikmat bu pulga opasi va akasi sherik bo‘lib qolishidan qo‘rqadi, xavotirlanadi. Ammo baribir juda xursand bo‘ladi.

Hikmat: (duppaygan cho‘ntaklarini paypaslab) Eh, xudo beraman desa, beraverarkan-da, endi kandidatlik tugul, doktorlikni ham boshlasam bo‘laveradi. Nima, anov Ismoil Mardayevdan qayerim kam? Kalla bor, tildan bir qarich bo‘lsa, faqat shu zormanda (cho‘ntakni shapatilab) yetmay turgandi, endi bu ham bor. Agar otamning o‘lishini bilganimda, bir qop somonga almashtirardim, degan ekan bir jabrdiyda. Rosti ham shu: otangni sot, onangni sot, imkoningda neki bor barini sot, puldor bo‘l ekan! U belimning madori, ko‘zimning quvvati, tilu aqlimning kaliti, sehru jodung bormi deyman-da. Boyagina jinim suymay turgan odamni ota qadrdon qilding, qo‘yding, qoyil. Shuningga borman-da, man-man degan ne-ne odamlarni avvaliga ko‘kka ko‘tarib, so‘ng yer bilan yakson qilding, es-hushidan judo qilding, dinu diyonatdan chiqarding.

60 yoshlardagi Fayzi ota jamoa xo‘jaligi raisi. Uning hikoyalariga quloq tutsangiz, har tomonlama o‘z jamiyatiga moslashgan, yolg‘onlardan qurilgan tuzumning kerakli bir murvati ekanligini anglab yetasiz. Unga iymon, diyonat, insoniylik kabi xislatlar butunlay begona. U Ulug‘ ayaning qishloq markazida urush qurbonlari haykalini o‘rnatib, ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida bergan puliga paxta sotib olib, planni bajaradi.

Ulug‘ ayani ko‘rish bahonasida kelgan otaxon Hikmat va Hakimlarni bir piyola choyga aytishni maqsad qiladi. Chunki bir kun foydasi tegib qolishi mumkin. Hikmat bilan spirtli ichimlik ichib, onasi bergan pulni mastlik-rostlik qabilida aytib qo‘yadi. Hikmat bemor yotgan uyga kelib quturib, uyni yoqib yuboradi. Bungacha “egani oldida, yemagani ketida” bo‘lgan Hakim xazina izlab, uy devorlarini buzishga tushgan edi.

Qadrdonlar xarakteri ularning tillarida, nutq detallarida ham namoyon bo‘ladi. Hakim o‘z onasiga “kampirsho” deb murojaat qilsa, Hikmat ziyofatdan kelib, uyni boshiga ko‘taradi. “Bizning mamasha – geroy, y-o‘q, geroy emas, millioner! Butun kolxozni, katta-kichikni pulga ko‘mib tashlaydilar, faqat o‘z farzandlarini emas, shundaymi mamasha?” Bu jumlalar ichki dunyosi fisq-fasodlarga to‘lib ketgan, elining urf-odatlari, tiliga e’tiborsiz ikki oyoqli maxluqlarning asl basharasini ko‘rsatib bera oladi.

“Biri kam dunyo”da ham asar qahramonlarining taqdiri, tutgan yo‘llari tomoshabinlar kutganidan, Ulug‘ aya o‘ylaganidan boshqacha, ularning istagiga mutlaqo zid dramatik xatti-harakatlar, ya’ni fojia bilan tugashi ham tragikomediya syujeti yaxshi ishlanganidan dalolat beradi.

**A.TOSHPO‘LATOV,**
**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.**

**"Ayol ilmli bo'lsa, jamiyat ilmli bo'ladi". Bir qaraganda umumiy, ko'zimiz ancha o'rganib ketgan jumlaga o'xshaydi. Ammo uning zamiridagi ma'no oilalardagi totuvlik, farzandlar kamoli yo'lidagi sa'y-harakatlarda o'z aksini topadi. Samarqandda bir hafta davomida shu shior ostida oliy ta'lim muassasalarida olima ayollar ishtirokida konferensiya, seminar, uchrashuvlar o'tkazildi. Uchrashuvlarda olimalarning ilmiy izlanishlari, yangiliklari e'tirof etildi. Ko'p yillardan buyon yoshlarga saboq berib kelayotgan ustozlar taqdirlandi.**

# Ilmli ayolning uyi charog'on



- Mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolliklarini oshirish, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka o'rgatish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, - deydi viloyat hokimi o'rinbosari Zebiniso Rahmonova. - Ayni paytda, mamlakatimizda ilm-fan sohasida 5 mingga yaqin olimalar, oliy o'quv yurtlarida esa 14 mingdan ortiq xotin-qizlar faoliyat ko'rsatmoqda, ta'lim muassasalarida esa 4 million nafarga yaqin xotin-qizlar tahsil olmoqda. Jumladan, Samarqandda xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlash maqsadida ehtiyojmand oilalardagi 3103 nafar qizga oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli 4 foizli kvota asosida, 5 yillik ish stajga ega bo'lgan 2066 nafar xotin-qizga tavsiyanomalar berildi. Shuningdek, boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand xotin-qizlarning 150 nafariga bir yillik kontrakt to'lovlari to'lab berildi. Davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 2236 nafar faol xotin-qiz zahiraga olingan. Ulardan 10 nafari Prezident huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasida 2 oylik o'quv kurslarida o'qib, sertifikatga ega bo'lishdi.

"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da yurtimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ijtimoiy faolliklarini oshirishga qaratilgan islohotlar jarayonida "Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni"ning nishonlanishi olima ayollar va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan xotin-qizlarga ehtirom ko'rsatilishiga zamin yaratadi.

Ilmiy anjumanlarda samarqandlik olimalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari namoyish qilindi.

Haftalik doirasida umumta'lim maktablarida ham olimalar ishtirokida uchrashuvlar, viktorina va tanlovlar tashkil etildi.

**Gulruh MO'MINOVA.**

*O'qing, qiziq*

## AYOLLARNING MASHHUR IXTIROLARI



**KOMPYUTER**
Greys Xopper Garvard universitetida og'irligi 5 tonnaga yaqin bo'lgan birinchi kompyuterni yaratish ishtirokchilaridan biridir. 1944-yilda yaratilgan ushbu birinchi kompyuter xonaga zo'rg'a sig'ardi.

**BENZIN**
Rossiyalik kimyogar olima Anna Mejlumova 1945-yilda yoqilg'i sifatini yaxshilashga muvaffaq bo'ldi va yuqori oktanli benzinni ishlab chiqdi. O'shandan beri bu yo'nalishdagi rivojlanish davom etmoqda. Buning natijasida 5 dan ortiq turli turdagi yuqori oktanli yoqilg'i paydo bo'ldi.

**ELEKTR SOVUTKICH**
1914-yilda Florens Paspart kompressori elektr tarmog'idan quvvatlanadigan uy xo'jalik muzlatkichini patentladi. Bungacha barcha sovitish moslamalari bug' projektorlar yordamida ishlagan.

**BIRINCHI KOMPYUTER ALGORITMI**
Britaniyalik Ada Lavleys matematik bo'lganligi sababli Charlz Bebbij (kompyuterlar otasi)ning analitik dvigatelidan shunchaki hisoblash uchun emas, balki ko'proq foydalanish mumkinligiga ishongan. 1842-yilda u Bernoulli raqamlarini hisoblay oladigan ushbu mashina uchun algoritmni tasvirlab beradi. Bu kompyuter avlodi uchun birinchi "komanda"lar to'plami bo'lib, Ada dunyodagi ilk ayol dasturchilardan biri hisoblanadi.

**AVTOMOBIL ICHKI ISITKICHI**
1893-yilda amerikalik muhandis-mexanik Margaret Uilkox haydovchi qo'llarini isitish uchun dvigatelda isitiladigan havoni avtomobilning ichki qismiga yo'naltirishni taklif qiladi. U zamonaviy avtomobil isitish radiatoriga o'xshash qurilmani patentladi.

**G'ILDIRAK**
Ba'zi arxeologlar g'ildirakni ayol tomonidan ixtiro qilingan deb hisoblashadi. Asosiy dalil g'or rasmlari bo'lib, u yerda aynan ayollar ohaktoshdan g'ildiraklar yasayotganini ko'rish mumkin.

**G.XOLDOROVA tayyorladi.**



*Samarqand har bir davrda ham yirik madaniy va adabiy tadbirlar o'tadigan maskan hisoblangan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sarvar Azimov rahbarligidagi katta ijodiy guruh 1980-yilda viloyatimizning deyarli barcha tumanlarida mushoira va uchrashuvlar o'tkazgan.*

*Gazetamiz fotomuxbiri olgan ushbu suratda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari, shoir Samariddin Sirojiy yosh shoiralar bilan yangi muloqotga jo'nash oldidan.*

## ONALAR HAQIDA

**Hammada mehr bor, beminnat ko'rsatilgani uchun onalarniki ulug'.**

* * *

**Bolani onadan judo qilish mumkin, onani boladan emas.**

* * *

**O'ylab ko'rsam, onani sevish ozdek tuyuladi.**

* * *

**Onalar shunchalar mehribonki, o'zlarining g'animat ekanliklarini bildirishmaydi.**

* * *

**Odamlar bir-birini ona farzandini sevgani kabi ardoqlaganida dunyo urush nimaligini bilmagan bo'lardi.**

* * *

**Kimlar menikida mehmon bo'lgan desang de, faqat onam mehmon bo'ldi, dema.**

**Xurshid NURULLAYEV.**

**Ayol mo''tabar ona, mehribon opa-singil, umr yo'llarimiz davomida o'z shaxsiy orzularidan-da kechib, o'zini, hayotini bizga bag'ishlagan rafiqa va sadoqatli do'stdir. Uni deb qancha mard o'tdan o'tib, suv kechmadilarmi? Majnun sahro kezib, Farhod tog'ni talqon qilmadimi? Uni deb Akbar shoh dunyoga mashhur 7-mo''jizani tortiq qilmadimi?**

## "Ravza bog'i visolin istar ersang, bul onaning oyog'i osti tuprog'i"

Oila va jamiyatda ayolning o'rni beqiyos. Islom dinida ham ayol sha'ni doimo ulug'lab kelingan. Rasululloh (s.a.v.) hadisi shariflarda marhamat qiladilar: "Alloh tomonidan xayrli farzandlar ato etilishini so'radim, menga qiz bolalar ehson etdi. Kim qiz farzand bilan imtihon qilinsa (sinalsa), qizlarini chiroyli parvarish etsa, uning uchun jahannamdan parda bo'ladi".

Dinimiz ayollarga chiroyli muomalada bo'lishga buyuradi. Hadisi sharifda "Sizlarning yaxshilaringiz ahli ayoliga yaxshi munosabatda bo'ladiganidir" (Termiziy rivoyati) deyilgan. "Jannat onalar oyog'i ostidadur" demish kalom ko'pchiligimizga yod bo'lib ketgan. Alisher Navoiy bu fikrni quyidagicha ta'riflaydi:

Onalar oyog'i ostidadir,
Ravzayi jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'i visolin istar ersang,
Bul onaning oyog'i osti tuprog'i.

**Nasrulloxon NURULLOH o'g'li,**
**Samarqand shahridagi Namozgoh jome masjidi imom-xatibi.**

## Sakkizinchi mart

*Atirgullar noz qiladi,*
*Qish ko'ngilni yoz qiladi,*
*Tikani xo'p soz qiladi,*
*Gul bozori qiziydi bugun.*

*Chinnigullar bukilmas hech,*
*Majnuntolday to'kilmas hech,*
*Ko'zga qarab tikilmas hech,*
*Gul bozori qiziydi bugun.*

*Boy bo'ladi bari gulchilar,*
*Qizilu oq, sari gulchilar,*
*Puli ko'pning yori gulchilar,*
*Gul bozori qiziydi bugun.*

*Har bir qiz bir gul bo'ladi,*
*Gulni ko'rsa, sel bo'ladi,*
*Gul berganga el bo'ladi,*
*Gul bozori qiziydi bugun.*

*Aytolmaslar dardin til bilan,*
*Kuyib-yonib yotgan dil bilan,*
*Gulni olmoq uchun gul bilan,*
*Gul bozori qiziydi bugun.*

## Bizni bayram bilan qutlang, erkaklar!

(Bilsa, hazil...)

*Qachongacha dilni pinhon tutamiz,*
*Bayramgacha jim yurdik biz qo'rqoqlar.*
*Siz kerak, deb aytolmadik bittamiz,*
*Bizni bayram bilan qutlang, erkaklar!*

*Qo'ldan kelsa, ming ayolga gul bering,*
*Gulbog'larga bog'bonlaru tirgaklar.*
*Ammo faqat bittamizga dil bering,*
*Bizni bayram bilan qutlang, erkaklar!*

*Sizsiz to'ylarimiz, bayramimiz yo'q,*
*Sizsiz gul ochmaydi intiq kurtaklar.*
*Bugun dilimiz o't, ko'zlarimiz cho'g',*
*Bizni bayram bilan qutlang, erkaklar!*

*Yetmasa yetmasin, osmonlarga qo'l,*
*Biz yerda, osmonda tilla bargaklar.*
*Ko'p narsa kerakmas, yetar dona gul,*
*Bizni bayram bilan qutlang, erkaklar!*

*Mayli, tog' ko'tarmang, tog'siz o'zingiz,*
*Siz ovchi, biz ohu, jayron, hurkaklar.*
*Goh o'qdir, goh cho'g'dir aytar so'zingiz,*
*Bizni bayram bilan qutlang, erkaklar!*

*Kimdan arazlaymiz, siz bo'lmasangiz,*
*Ko'ylaklar, marjonlar yolg'on ermaklar.*
*Quyosh ham kulmaydi siz kulmasangiz,*
*Bizni bayram bilan qutlang, erkaklar!*

*Siz fe'li asovlar bo'lmasaydingiz,*
*Aytmas edik ming bir kecha ertaklar.*
*Gulga aylanmasdik, kelmasaydingiz,*
*Bizni bayram bilan qutlang, erkaklar!*

*Qozon, o'choq, hovli kulsin desangiz,*
*Chiqmasin desangiz oshdan kurmaklar,*
*Quloq tinch, ko'ngil xush bo'lsin desangiz,*
*Bizni bayram bilan qutlang, erkaklar!*

*So'z bering, kipriklar hech bo'lmas, deng nam,*
*Siniq ko'ngillarni butlang, erkaklar.*
*Asli siznikidir bayram ham, biz ham,*
*Bizni bayram bilan qutlang, erkaklar!*



* * *

*Nahot bizga qutlov, o'zi kim edik,*
*Rahmat, cho'kkan dilni to'qlaganlarga.*
*Sokin daryo edik, tilsiz, jim edik,*
*Ming tashakkur, bizni yo'qlaganlarga!*

*Ismimiz birovning esiga kelib,*
*Osmonlarga yetdi egik boshimiz.*
*Kecha g'amgin yurak jilmayib, kulib,*
*O'smalarni tusab qoldi qoshimiz.*

*Bor ekan bizni ham suyagich odam,*
*Ko'nglimizda yondi umid degan sham.*
*Endi hasrat bizga qo'yolmas qadam,*
*Bayramliging uchun rahmat, ey bayram!*

**Xosiyat BOBOMURODOVA.**

## Muhabbat fasli



*Ko'klam nafasini sog'indi yurak,*
*Gullar olamiga sig'indi ohim.*
*Shirin visoliga yetkazdi tilak,*
*Jo'shqin qaldiroqlar bo'ldi hamrohim.*

*Ohular hurkadi haroratidan,*
*Pishqirib oqadi anhorning joni.*
*O'ksigan hislarim ko'kka intilib,*
*Bag'riga bosh qo'yar dardkash dunyoning.*

*Ishqdek huzur berar bahor epkini,*
*Jannatdan rang olgan bog'u bo'stonlar.*
*Vujudim borliqqa ketar qorishib,*
*Bino bo'lar undan xushbo'y rayhonlar.*

*Oydinlashib borar muhabbat fasli,*
*Sukunat yorishar qarog'larida.*
*Zavqini tuyaman telba ruhimning*
*Qir to'la maysaning yaproqlarida.*

**Zuhra BEGIM.**

## She'r yozing

*Siz men haqda bitta she'r yozing,*
*Baxt to'lg'onsin satrlarida.*
*O'qiganning boshi aylansin,*
*Ishq ufurgan atirlaridan.*

*Siz men haqda bitta she'r yozing,*
*Qo'shmang ko'nglim alamlarini.*
*Toleimga kelsin havasi,*
*Sanamlarning sanamlarini.*

*Siz men haqda bitta she'r yozing,*
*Bir kam dunyo deb yozmang, qayting.*
*Bolasi ko'p u ayolni, deng,*
*U eng baxtli ONA deb ayting.*

*Siz men haqda bitta she'r yozing,*
*Hasadlarning bag'rini o'ying.*
*Nigohlari ma'sum, beg'ubor,*
*U hammadan go'zal deb qo'ying.*



*Siz men haqda bitta she'r yozing,*
*O'qiy shodon quvonchdan yonib.*
*Yashay toki armonga qasdda,*
*O'z baxtimga o'zim ishonib.*

*Siz men haqda bitta she'r yozing.*

**Nodira NURMATOVA,**
**Kattaqo'rg'on tumani.**

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

**10-MART**

**To'ti YUSUPOVA** – (1936-2022) Samarqand tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

**Amina MIRMUHAMMEDOVA** – (1912-2005) Andijonda tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

**Oyrajab BURHONOVA** – 1957-yilda Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

Gazetaning navbatdagi soni 2023-yil 11-mart, shanba kuni chop etiladi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

*Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 584 nusxada chop etildi. Buyurtma 125. Hajmi 4 bosma taboq, bichimi A-2*

***Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.***

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G'.HASANOV.
Navbatchi: D.TO'XTAYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda